

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM**

**VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY-IQTISODIY**

fakultet

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI" kafedrasи

5111600 – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi” yo'nalishi 52-16  
guruh talabasi

**QURAMATOV MUROD ABDUSALOM O`G`LINING**

bakalavr darajasini olish uchun yozgan

**“MA`NAVIYATDA MILLIYLIK, MINTAQAVIYLIK VA  
UMUMINSONIYLIK” mavzusidagi**

# **BITIRUV-MALAKAVIY ISHI**

**Himoya uchun qabul qildi:**

“ Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari  
va huquq ta'lifi”  
kafedrasи mudiri kat o'q.

Sh.Kenjaev \_\_\_\_\_  
“ \_\_\_\_\_ ” 2020 yil

**Ilmiy rahbar:** “ Milliy g'oya,

ma'naviyat asoslari va huquq  
ta'lifi” kafedrasи katta o'qituvchisi  
H.Usmonova \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” 2020 yil

Bitiruv malakaviy ishi Guliston davlat universitetining 2020-yil  
dagi \_\_\_\_\_ -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat attestatsiya  
komissiyasining \_\_\_\_\_ -sonli yig'ilishida muhokama qilindi va “\_\_\_\_\_” ball  
bilan (\_\_\_\_\_) baholandi.

(a'lo, yaxshi, qoniqarli)

Bitiruv malakaviy ishi “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq” ta'limi  
kafedrasining 2020 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ – sonli Ilmiy-uslubiy  
kengashi qarori bilan Davlat attestatsiyasi komisssiyasiga himoya qilish uchun  
tavsiya etildi.

Fakultet dekani: B.To'ychiboev

Bitiruv malakaviy ishi “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi”  
kafedrasining 2020 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ – sonli yig'ilishida  
muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri: Sh.Kenjaev

Bitiruv malakaviy ishi “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq” ta'limi  
yo'nalishi 52-16 guruhi talabasi \_\_\_\_\_ M.Quramatov

Rahbar “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasi katta  
o'qituvchisi \_\_\_\_\_ H.Usmonova

**Guliston-2020**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**IJTIMOY - IQTISODIYOT fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasи**  
**“Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo’nalishi.**

“Tasdiqlayman”  
dekan \_\_\_\_\_  
**Dots. B.To’ychiboyev**  
30.11.2019

**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO’YICHA TOPSHIRIQLAR**

**Talaba:** Quramatov Murod Abdusalom o’g’li

**1. Ishning mavzusi:** Ma’naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik.

**GulDU Rektorining 27.11.2019 yil 713-S sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan**

**2. Ishni topshirish muddati:** 10.06.2020 yil

**3. Mavzu bo’yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro’yxati:** 1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. - T.: Sharq, 1998. 2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008. 3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. - T.: O’zbekiston, 2017. I tom. 4. Abdullajon Begmatov. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. -T., 2000. 5.Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. – T., 1996. 6.Saifnazarov I. Iqtisodiy va ma’naviy manfaatlar uyg`unligi va barkamol inson tarbiyasi. - T.: Yangi asr avlod, 2002. 7. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo’mitasi “Globallashuv sharoitida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari”. - Toshkent, 2010. 8. Mansur Bekmurodov. O’zbek mentaliteti kecha va bugun. //Tafakkur jurnali. №2. 2002.

**4. Ishning maqsadi va hal qilinadigan masalalar:** Bugungi globallashuv jarayonlarida ma’naviyatning milliy, mintaqaviy, umuminsoniy jihatlarini, jamiyat hayotidagi o`rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat. Xalqlar ma’naviyati rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari va uning rivojlanish xususiyatlari tadqiqotning ob’yektni, xalqlar ma’naviyati taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-tarixiy omillar va bu boradagi ilmiy fikr-qarashlar haqida fikr yuritish. Shuningdek, o’zbek xalqi ma’naviyati rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslarini ilmiy tadqiq qilish va tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish kabilar ushbu BMI mavzusining asosiy maqsadi bo`lib hisoblanadi.

**5. Grafik qismi materiallari ro’yxati:** Mavzu yuzasidan ilovada bir necha jadvallar, rasmlar beriladi va taqdimot materiallari tayyorланади.

**6. Maslahatchilar:** 1. Olimova M.

2. Saidqulov N.

Bo’limlar	Maslahatchi FISH	Topshiriq berildi		Topshiriq qabul qilindi	
		Sana	Imzo	Sana	Imzo
<b>Adabiyotlar</b>	Saidqulov N.	4-9.12.19.		4-9.12.19.	
<b>Reja</b>	Usanova X.	11-20.11.19.		11-20.11.19.	
<b>Kirish</b>	Olimova M.	21-27.12.19.		21-27.12.19.	
<b>I bob</b>	Usanova X	12-30.01.20		12-30.01.20	
<b>II bob</b>	Saidqulov N.	01.02-20.03.20		01.02-20.03.20	
<b>Xulosa</b>	Usanova X.	23-30.05.20.		23-30.05.20.	
<b>Ilovalar</b>	Olimova M.	13-18.06.20.		13-18.06.20.	
<b>Taqdimot</b>	Usanova X.	13-18.04. 20.		13-18.04. 20.	

**7. Bitiruv ishini bajarish rejasi:**

<b>№</b>	<b>Bosqichlar nomi</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Bajarilish belgisi</b>
1.	<b>Mavzu tanlash.</b> Mavzu tanlanadi	<b>4-9.12.19</b>	
2.	<b>Adabiyotlarni o'rganish.</b> Mavzu yuzasidan adabiyotlar o'rganiladi va tahlil qilinadi.	<b>4-9.12.19</b>	
3.	<b>Reja tuzish.</b> Mavjud adabiyotlarga asoslanib ishning rejasi tuziladi.	<b>11-20.12.19</b>	
4.	<b>Kirish.</b> Ishning kirish qismi yoziladi. Bunda ishning maqsadi, o'rganilish, tadqiq etilish darajasi, dolzarbliги, bosh maqsad va vazifalari, nazariy-metodologik asoslari va h.k. lar ilmiy asoslanadi.	<b>1.06-12.06.20</b>	
5.	<b>I Bob. Ma`naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik tushunchalarining mazmun-mohiyati.</b> 1-§. Ma`naviyat tushunchasi va uning millat taraqqiyotidagi o`rni.	<b>12-30.01.20</b>	
6.	<b>2-§. Mintaqaviy ma`naviyat ko`lami hamda uning mintaqaviy masalalardagi zaruriyligi.</b>	<b>12-19.01.20</b>	
7.	<b>3-§. Informatsion dunyoda umuminsoniy ma`naviyatning namoyon bo`lishi global ehtiyoj sifatida</b>	<b>20-30.01.20</b>	
8.	<b>II Bob. Ma`naviyat – jamiyat hayotini harakatlantiruvchi kuch sifatida.</b> 1-§. Ma`naviyat va ijtimoiy taraqqiyotning uzviyiligi.	<b>1.02-20.04.20</b>	
9.	<b>2-§.. Globallashuv sharoitida ma`naviyatga bo`lgan ehtiyojning ortishi.</b>	<b>10-29.03.20</b>	
10.	<b>3-§. Yangilanayotgan O`zbekistonda ma`naviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar xususida</b>	<b>1-30.04.20</b>	
11.	<b>Xulosa.</b> BMI yuzasidan har bir bob va fasllarda keltirilgan materiallar umumlashtirilib, umumiy xulosalar qilinadi.	<b>23.05-30.05.20</b>	
12.	<b>Dastlabki himoya.</b> Ish kafedrada reja asosida dastlabki himoyadan o'tkaziladi.	<b>1.06.-10.06.20</b>	
13.	<b>Ilovalar tayyorlash.</b> Ilovalar tayyorlanadi.	<b>13.06-18.06.20</b>	
14.	<b>Taqdimot tayyorlash.</b> BMIning taqdimot materiallari tayyorlanadi.	<b>13-18.06.20</b>	
15.	<b>Taqrizlar olish.</b> BMI yuzasidan taqriz olinadi.	<b>13-18.06.20</b>	
16.	<b>Himoyaga hozirlilik.</b> Ishning dastlabki himoyada ko'rsatilgan xato va kamchiliklari to'g'rilanib, himoyaga hozirlanadi.	<b>16-19.06.20</b>	
17.	<b>BMI himoyasi.</b> Ish ma'muriyat rejalashtirgan sanada himoya qilinadi.	<b>20-21.06.20</b>	

Bitiruv ishi rahbari \_\_\_\_\_ Usmanova X.

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ Kenjayev Sh.

Topshiriqni bajarishga oldim \_\_\_\_\_ Quramatov M.

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_ 2019 yil

## **Guliston davlat unirversiteti “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakulteti**

### **“5111600 - “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi Quramatov Murodning “Ma’naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

#### **TAQRIZ**

Milliy ma’naviyat hodisasi ham tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko‘p o‘lchamli voqe’likdir. Inson ma’naviy olami o‘lchamlari cheksiz bo‘lib, uni hech bir narsa bilan o‘lhash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma’naviyat avvalo, milliy ongda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongni rivojlantirishni tarbiyaviy ishning muhim bo‘g‘imi sifatida olib qaramoqdamiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o‘zlikni anglash sari yetaklaydi.

Shu nuqtai nazardan, o‘zbek xalqi ma’naviyati rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslarini mintaqaviy va umuminsoniy ma’naviyat bilan uzviy ravishda bog‘lab ilmiy tadqiq qilingan va tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan M.Quramatovning “Ma’naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik” mavzusidagi tadqiqot ishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

Birinchi bob “Ma’naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik tushunchalarining mazmun-mohiyati” deb nomlangan bo‘lib, unda mazkur tushunchalar to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlar berilgan. Ma’naviyat tushunchasi va uning millat taraqqiyotidagi o‘rni, mintaqaviy ma`naviyat ko`lami hamda uning mintaqaviy masalalardagi zaruriyligi hamda informatsion dunyoda umuminsoniy ma`naviyatning namoyon bo`lishi global ehtiyoj ekanligi haqida ma’lumot keltirilgan va tahlil qilingan.

Ikkinci bob esa “Ma’naviyat – jamiyat hayotini harakatlantiruvchi kuch sifatida” deb nomlanib, unda ma’naviyat va ijtimoiy taraqqiyotning uzviyiligi, globallashuv sharoitida ma`naviyatga bo`lgan ehtiyojning ortishi, yangilanayotgan O‘zbekistonda ma`naviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar xususida ham alohida to‘xtalgan.

M.Quramatovning BMI sida ayrim juz’iy kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Jumladan, ayrim so‘zlarni yozishda orfografik, ba’zi bir iboralarni yozishda g‘alizliklar uchraydi. Bu va boshqa nuqsonlar, BMIning umumiyligi qiymati va mazmuniga sezilarli ta’sir etmaydi.

Murod Quramatovning ushbu “Ma’naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini himoyaga chiqish uchun tavsiya qilaman.

**“MG‘, MA va HT” kafedrasи kat.o‘q.:**

**M.Olimova**

**Guliston davlat unirversiteti “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakulteti**

**“5111600 - “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi Quramatov Murodning “Ma’naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

**XULOSASI**

Sovet totalitar tuzumi sharoitida ma’naviy-axloqiy fazilatlarning milliy jihatlari, an’analarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi. Ularni ma’naviy qoloqlik ifodasi sifatida talqin etildi. Sharq xalqlarining, jumladan o‘zbek xalqining ming yillik ma’naviy boyliklarini o‘zida mujassamlashtirgan hadislar, shariat hukmlari diniy xurofot sifatida qoralandi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to‘g‘risidagi ma’naviy qadriyatlariga zid bo‘lgan yevropacha an’analar yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. Shu tufayli ma’naviy tubanlik yuzaga keldi. Yoshlarda asriy milliy ma’naviyatimizga zid bo‘lgan bag‘ritoshlik (farzandni, ota-onani tashlab ketish singari), qotillik (o‘z farzandini o‘ldirib yashirish), xudbinlik, maishiy buzuqlik, giyohvandlik kabi ma’naviy qiyofa yuzaga kelib, ildiz ota boshladi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma’rifatparvar fidoiyilar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo‘lgan ma’naviy inqiroz haqida gapirib, bu og‘ir vaziyatdan ta’lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. «Tarbiya, - degan edi Abdulla Avloniy, - bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir».

Bu fikrlarning ahamiyati hozirda ham kamaygani yo‘q. Barcha xalqlar, jumladan o‘zbek millati faqat milliy, mintaqaviy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma’naviy aynishning oldini olishi mumkin.

Shu jihatdan M.Quramatovning “Ma’naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik” mavzusida olib borgan bitiruv malakaviy ishi ahamiyatlidir.

Ushbu BMI: kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa, foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

BMIning birinchi bobi “Ma`naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik tushunchalarining mazmun-mohiyati” deb nomlanib, turli adabiyotlar asosida atroflicha tadqiq etilgan.

BMIning ikkinchi bobi “Ma`naviyat – jamiyat hayotini harakatlantiruvchi kuch sifatida” deb nomlanib, unda ma`naviyat va ijtimoiy taraqqiyotning uzviyligi, globallashuv sharoitida ma`naviyatga bo`lgan ehtiyojning ortishi, yangilanayotgan O`zbekistonda ma`naviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil qilingan.

Tadqiqotning xulosa qismi ham ilmiy qiymatga ega. Zero, xulosa izlanishlar natijasida kelib chiqqan chuqur, asosli dalillarga tayanib yozilgan. Bitiruv malakaviy ishidagi juz’iy xatolar ishning ilmiy qiymatini kamaytirmaydi.

Quramatov Murodning BMIsi bugungi kundagi dolzarb ijtimoiy-ma`naviy masalalardan biri bo‘lib, tadqiqotchi bu masalani tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy solishtirish va o‘zaro aloqadorlik usulida o‘rganishga harakat qilgan.

“Ma`naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik” mavzusidagi BMI belgilangan nizom va talablarga to‘liq mos keladi. Ayni vaqtida bu BMI “Ma`naviyatshunoslik”, “Ma`naviyat asoslari”, “Ma`naviyatning rivojlanish tarixi”, “O’zbekiston tarixi” kabi fanlarni o‘zlashtirish jarayonida zarur bo‘lgan qo‘llanma rolini ham o‘ynaydi degan niyatdamiz.

Umuman, M.Quramatovning “Ma`naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik” mavzusidagi tadqiqot ishi bitiruv malakaviy ishga qo‘yilgan talablarga javob beradi. Mazkur ishni ijobiy baholab, himoyaga tavsiya etish mumkin.

**Ilmiy rahbar:**

**kat.o‘q. H.Usmonova**

**MA`NAVIYATDA  
UMUMINSONIYLIK  
REJA**

**MILLIYLIK,**

**MINTAQAVIYLIK**

**VA**

**I. KIRISH.....**

**II. ASOSIY QISM.....**

**1-BOB. MA`NAVIYATDA MILLIYLIK, MINTAQAVIYLIK VA  
UMUMINSONIYLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHIYATI.**

.....

**1.1. Ma`naviyat tushunchasi va uning millat taraqqiyotidagi o`rni.....**

**1.2. Mintaqaviy ma`naviyat ko`lami hamda uning mintaqaviy masalalardagi zaruriyligi.....**

**1.3. Informatsion dunyoda umuminsoniy ma`naviyatning namoyon bo`lishi global ehtiyoj sifatida.....**

**2-BOB.MA`NAVIYAT – JAMIYAT HAYOTINI HARAKATLANTIRUVCHI  
KUCH SIFATIDA.....**

**2.1. Ma`naviyat va ijtimoiy taraqqiyotning uzviyligi.....**

**2.2. Globallashuv sharoitida ma`naviyatga bo`lgan ehtiyojning ortishi.....**

**2.3. Yangilanayotgan O`zbekistonda ma`naviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar xususida.....**

**III. UMUMIY XULOSALAR.....**

**IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....**

**V. ILOVA.....**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** O'zbekistonda milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasi asosiy vazifa qilib qo'yilar ekan, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omillarni atroflicha tadqiq qilib, ularning bu borada qanday o'rinn tutishini chuqr anglab olish taqozo etiladi. Zero, xalq hayotining ruhiy-ma'naviy asoslarini mustahkamlash va rivojlantirish respublikamizda davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardandir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mezonki, u bizning qadimiylar va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda tarixan shakllangan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi<sup>1</sup>. Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan uzviy bog'liq. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, - degan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, - tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi<sup>2</sup>. Keyingi yillarda O'zbekiston dunyoga yuz tutar ekan, tenglar orasida teng bo'lib, mustaqillik yillarida madaniyat, xalqimizning milliy ma'naviyati buyuk evrilishlar ostida rivojlandi. Shu nuqtai nazardan, tanlangan tadqiqot mavzuning dolzarbliji quyidagilar bilan izohlanadi:

**Birinchidan**, har bir xalq va mamlakat hayoti va taraqqiyotida ma'naviyat g'oyat muhim o'rinn tutadi. Ma'naviyatning rivojlanishi esa har bir xalqda o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy asoslarga ega bo'lib, mazkur masalani ilmiy o'rganish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

**Ikkinchidan**, mamalakatimiz mustaqillik yillarida jamiyat taraqqiyotining asosi – ma'naviyat, deb e'tirof etildi va bu borada g'oyat keng ko'lamli ishlar amalga

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1996 - 80-bet.

<sup>2</sup>. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, 29-30-betlar

oshirildi, ularni fanlarimizda atroficha o'rganish bugungi kundagi dolzarb vazifalardandir.

**Uchinchidan**, keyingi davrda mamlakatimizda xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, ko'plab kitob, risola va maqolalar e'lon qilindi. Mazkur ishlarni atroficha tahlil qilish, umumlashtirish va tegishli xulosalar chiqarish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning maqsadi:** O'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslarini ilmiy tadqiq qilish va tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

- o'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslariga doir ilmiy manbalarni falsafiy nuqtai nazardan o'rganish, umumlashtirish;
- fanlarda ma'naviyatga ilmiy yondashuv va tamoyillar mohiyatini yoritish;
- o'zbek xalqi ma'naviyatining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;
- milliy ma'naviy tiklanish kontseptsiyasining mohiyati va ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini ko'rsatib berish;
- xalqimiz ma'naviyatining rivojlanishida tarixiy meros va milliy ma'naviy-madaniy qadriyatlarning o'rnni ko'rsatish;
- mustaqillik sharoitida o'zbek xalqi ma'naviyatining rivojlanish yo'nalishlariga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti va predmeti:** O'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari va uning rivojlanish xususiyatlari tadqiqotning ob'ektini, xalqimiz ma'naviyati taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-tarixiy omillar va bu boradagi ilmiy fikr-qarashlar uning **predmetini** tashkil qiladi.

**Taqiqotning ilmiy o'rganilganlik darajasi:** O'zbek xalqi ma'naviyatining rivojlanishi tarixi, uning ob'ektiv va sub'ektiv asoslari mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng keng tadqiq etila boshlandi. Bu borada ko'plab ilmiy manbalar yuzaga keldi. Respublikamiz olimlaridan akademik S.Shermuhammedov, tadqiqotchi olimlardan A.Erkaev, M.Imomnazarov,

S.Otamurodov, M.Abduraxmonov, S.Xusanov, A.Begmatov, Q.Nazarov, M.Quronov, I.Quvondiqov, M.Bekmurodov, X.Shayxova, Sh.To'raev va boshqalar<sup>3</sup> bu masalada salmoqli ishlarni amalga oshirishdi.

Ayni paytda mazkur mavzuda qo'yilgan muammolarning nazariy va amaliy masalalarini o'rganishda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari alohida o'rinn tutadi. Ushbu asarlarda xalqimiz ma'naviyatini tiklash va rivojlantirishning kontseptual asoslari, bu boradagi asosiy yo'nalishlar va dolzarb vazifalar aniq-ravshan ko'rsatib berilgan.

### **Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:**

- o'zbek xalqi ma'naviyatining ijtimoiy-tarixiy asoslari alohida mavzu doirasida yangi manbalar asosida tahlil etildi;
- o'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-tarixiy omillar ko'rsatib berildi;
- xalqimiz milliy ma'naviyatini yanada rivojlantirishga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati.** Mazkur Bitiruv malakaviy ishi natijalaridan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy asoslarini ilmiy o'rganishda, shuningdek, ta'lim muassasalarida "Ma'naviyatshunoslik", "Ma'naviyat asoslari", "Ma'naviyatning rivojlanish tarixi ", "O'zbekiston tarixi" kabi fanlardan amaliy mashg'ulotlar o'tishda hamda tegishli mavzularda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi jihatidan kirish, 6 ta paragrafni o'z ichiga olgan 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning hajmi betdan iborat.

---

<sup>3</sup> Erkaev A.P. Ma'naviyat millat nishoni.-T.: 1997; Imomnazarov M. Ma'naviyati rivojlanishi tarixi.. -T.: 2008., Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari:-T.: "Toshkent islom universiteti", 2001., Imomnazarov M.. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. -T.: 2006; Otamurodov S.O. Abduraxmonov M. Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. . -T.:2010; Begmatov A.Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlariда yangi falsafiy tizimning yaratilishi. - T.: 2000; Munavvarova M.Milliy g'oyaning ma'naviy ildizlari. - T.:, 2011; Nazarov Q.N. G'oyalar falsafasi – T.:Akademiya, 2011; Quronov M. Milliy tarbiya.-T.: Ma'naviyat, 2007; Quvondiqov I. Milliy-ma'naviy qadriyatlar-o'zlikni anglesh omili.-T.: "Nishon-noshir", 2010; Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti.-T.:"Yangi asr avlod", 2004; Shayxova X.Ma'naviyat va sog'lom avlod kamoloti.-T.: "Akademiya", 2006 va boshqalar.

## **I- BOB. MA`NAVIYATDA MILLIYLIK, MINTAQAVIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHIYATI.**

### **1.1 Ma`naviyat tushunchasi va uning millat taraqqiyotidagi o`rni.**

Mustaqillik xalqimizga o`zining boy moddiy-ma`naviy meroslaridan to`la bahramand bo`lish imkonini berdi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” asarida keltirganidek: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og`zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo’lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma`naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo’lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi”<sup>4</sup>. Eng muhimi bu ulkan ma`naviy merosga munosib voris bo`lish, ajdodlar an’anasini davom ettirish, yangi zamonaviy qadriyatlar bilan boyitib borish kabi fazilatlarning yoshlar tafakkurida ilmiy shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz o’z mustaqilligini qo’lga kiritgunga qadar ilmiy adabiyotlarda “Ma`naviyat” mustaqil ilmiy tushuncha sifatida qo’llanilmagan edi. Shu bois bu tushunchani chuqurroq o’rganishga bo’lgan qiziqish ayniqsa birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning unga bo’lgan e’tiboridan keyin oshib ketdi.

Bir qator olimlarimiz anjumanlarda qilgan ma’ruzalarida «ma`naviyat – insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiytas’sir qiluvchi tizim yoki ma`naviyat- insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig’indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarning aks etish darajasidir», deb ta’rif berib kelmoqdalar. A.Erkaevning fikricha, «Ma`naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat,adolat, to’g’rilik, sof dallik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go’zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va

---

<sup>4</sup>Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008, 31-бет.

shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir».<sup>5</sup> M.Imomnazarov dastlab “Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur...»,<sup>6</sup> -deb yozgan bo'lsa, keyinchalik «Ma'naviyat – inson qalbida, ko'ngil ko'zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta'rif darhaqiqat, so'fiyona ramziy ta'rifdir, zotan boshqacha ta'rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo'yadi»,<sup>7</sup> -deb yozadi.

E.Yusupov insonda mavjud bo'ladigan hamma xislatlar va fazilatlar emas, balki ijobiyalarigina ma'naviyat bo'la olishini ko'rsatib: «Ma'naviyat –inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir – biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir»,<sup>8</sup> -deb ta'riflaydi.

T.Mahmudov «...Ma'naviyat – insoning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy, ax loqiy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir »,<sup>9</sup> -degan ta'rifni beradi.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlarning hammasida ham ma'naviyatning ko'pgina qirralari o'z ifodasini topgan va mualliflar o'zlarining nuqtai nazarlarini bildirganlar, ammo ularda inson salohiyatini o'stirish masalasi e'tibordan chetda qolganligi ko'rindi. Hali yana ko'plab olimlarimiz ma'naviyat tushunchasiga o'z munosabatlarini bildiradilar va ana shu bildirilgan turli fikrlar asosida umumiyluk mukammal ta'rif shakllanadi, degan umiddamiz.

Bugunga qadar ma'naviyat tushunchasiga mukammal ta'rif shakllanmaganligiga sabab uning keng qamrovli, murakkab va ayni vaqtida «sodda» tushuncha ekanligida. Ma'naviyat ko'proq insonning ichki, botiniy, yashirin dunyosini aks ettirishidir. Inson ichki, botiniy dunyosi esa gavhar to'la tubsiz dengiz singaridir. Bu dengizdan qancha gavhar olsangiz tugamagani singari inson ichki dunyosi ham tubsiz va o'zini rang-barang tarzda namoyon etadi. Inson qalbiga, botiniy dunyosiga qanchalik chuqur kirib borsangiz, shunchalik turli-

<sup>5</sup> Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. Тошкент. Маънавият, 1997, 27-бет

<sup>6</sup> Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. Тошкент: Шарқ, 1996, 6-бет.

<sup>7</sup> Ўша муаллиф. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. Тошкент: Шарқ, 1999, 14-бет

<sup>8</sup> Қаранг: Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент: Университет, 1998, 34-бет.

<sup>9</sup> Махмудов Т. Мустакиллик ва маънавият. Тошкент: Шарқ, 2001, 9-бет

tumanlik bilan toblanib, o'zining yangidan-yangi qirralarini namoyon etadi. Mana shuning uchun ham ma'naviyat tushunchasiga mukammal, har taraflama to'liq ta'rif berish mushkulroq. Ammo Respublikamiz olimlari tomonidan «Ma'naviyat» tushunchasiga berilayotgan ta'riflarni va uning inson, millat, xalq, jamiyat hayotida tutgan o'rni to'g'risida ilgari surilayotgan g'oyalarini umumlashtirgan holatda ma'lum bir umumlashgan xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

Otamurodov S. va boshqalar hammuallifligidagi darslikda ular ma'naviyat – insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, - deb ta'rif berishgan.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, ma'naviyat – taqdirining ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak.<sup>10</sup>

Ma'naviyat inson tug'ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib shakllanadi. Uning qaror topishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda ma'naviyatga berilgan ta'rif sifatida birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tavsiyi metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda: “ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz”<sup>11</sup>.

<sup>10</sup> Каранг : Каримов И. А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, Ўзбекистон, 1993, 74- бет

<sup>11</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008, 19-бет.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov yana alohida ta'kidlagaydiki, har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'mi va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Hayotga qadam tashlayotgan bolaning xarakterini, tabiatni va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olivjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qadr topadi.

Har bir oila farzandining ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsalarni tushunib, anglay boshlaydi. Ota-onasiga, bobo va momolariga mehr va hurmati, o'zini o'rabi turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi. Agar ota-onsa, katta o'g'il-qizlar o'zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida kichiklarga o'rnak bo'lish o'rniga qo'pol muomila qiladigan bo'lsa, bu holat bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Vaqtin soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk odat sifatida namoyon bo'ladi. Oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh bo'lib voyaga etishi mumkin. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish maqsadga muvofiqdir.

Farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin farzandlarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga etkazish nafaqat oila uchun, balki jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Farzand tarbiyasiga e'tibor bermaslik nafaqat ota-onalar, butun bir oila, butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha bunyodkorlik ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati ularning yorug' kelajagi uchun amalga

oshirilmoqda. Lekin baxtu-saodat faqat boylik, molu-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, oilaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.<sup>12</sup>

“O’z istiqlol va taraqqiyot yo’limiz,- deb yozgan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq, - bu gul bilan qoplangan yo’l emas, totalitarizm merosidan xalos bo’lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo’lidir”.

Bugungi kunda ham ushbu poklanish jarayoni davom etmoqda. Yangicha, mustaqil tafakkur zarurati hanuz dolzarb, milliy mafkurani shakllantirish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish bugunning ham eng muhim vazifasidir. Mustaqillik mas’uliyati ayni shu vazifalarni mukammal hal etishni taqozo qilib turipti.

“Biz, - deydi Prezident, - iqtisodiy o’nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma’naviy o’nglanish, ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg’un bo’lishini istaymiz”<sup>13</sup>. Chunki xalq ma’naviyati o’nglanmaguncha, na ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, na iqtisodiy sohada jiddiy yangilanishlar quvvatga kirishi qiyin.

I.A.Karimov O’zbekiston Prezidenti lavozimiga saylangan dastlabki kunlardan beri xalq ma’naviyatini yuksaltirishga birinchi darajali e’tibor qaratib kelmoqda. Hali sho’rolar tuzumi mavjud bo’lib, yurtimiz “sovet sotsialistik respublikasi” deb atalgan davrda – 1990-yil 24-mart Oliy Kengash sessiyasida O’zbekistonda birinchi marta prezident lavozimi joriy etilib, Islom Abdug’anievich Karimov ushbu lavozimga munosib topilgach, O’zbekiston Prezidentining birinchi nutqidayoq “xalqni ma’naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va ma’naviy yuksaltirish” masalasi davlat rahbarining eng muhim vazifalaridan ekanligi alohida ta’kidlab o’tildi.

Mustaqillik ma’naviyatining asosini tashkil etuvchi to’rt negiz:

- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

<sup>12</sup>Каранг. И.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 52-56 бетлар

<sup>13</sup><http://milliymanaviyat.uz/node/229>

- Xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- Insonning o’z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- Vatanparvarlik o’zaro chuqur ichki uyg’unlikka ega.

Shu bilan birga bugungi kun uchun dolzarbliji jihatidan alohida inson shaxsining o’z ichki imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi masalasi birinchi o’ringa chiqib turipti. “Erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir”, deb ta’kidladi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1999-yil 14-apreldagi ma’ruzasida. Davlatimiz va Prezidentimizning milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishga e’tibori, aslida va birinchi navbatda, har bir insonning haqiqiy erkinligini ta’minalashga bo’lgan asosli e’tiborini ko’rsatadi. Chunki o’zligini anglamagan odam, unga qancha imkon va sharoit yaratib bermang, voqeан hur va ozod bo’la olmaydi. Ammo o’zligini anglash degani, o’zining Vatanga, millatga, bashariyatga, Borliq haqiqatiga nisbatini to’g’ri belgilay bilish degani, bunga erishish osonlik bilan bo’lmaydi.

## **1.2. Mintaqaviy ma`naviyat ko`lami hamda uning mintaqaviy masalalardagi zaruriyiligi.**

Markaziy Osiyo jahonning ilm-u fan, falsafa, din, adabiyot va san'at qadimdan rivojlangan, tarixi, ma`naviyati nihoyatda boy mintaqalardan biridir.

Bir necha ming yilliklarda shakllangan Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma`naviyati takomil bosqichlari mazkur o'lkada yuz bergen madaniy rivojlanish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu sahnda yuz beruvchi ma`naviy hodisa sanaladi. Xalqimiz madaniy-ma`naviy taraqqiyoti o'ta murakkab tarixiy silsilalar, o'zgarishlar va hodisalar majmuini tashkil etadi.

Ana shu murakkab va ko'p ming yillik ma`naviy takomilimiz jarayonidan asosiy bo'g'inlarni ajratib olishimiz lozim. Busiz milliy ma`naviyatimiz rivojlanishi bosqichlari haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Ko'pgina tadqiqotchilarining bu boradagi fikrlarini o'rganib, milliy ma`naviyatimizning bir necha ming yillik tarixini besh davrga ajratadi:

1. Islomgacha milliy ma`naviyatimiz taraqqiyoti.
2. Ilk Sharq uyg'onish davri (IX-XII asrlar)da ma`naviyat va ma'rifat rivoji.
3. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida (so'nggi uyg'onish davri) ma`naviy-ma'rifiy takomil masalalari.
4. Xonliklar, mustamlakachilik va qaramlik sharoitida ma`naviyat.
5. Mustaqillik va ma`naviy poklanish, ma`naviy tiklanish va ma`naviy rivojlanish masalalari<sup>14</sup>.

Bu davrlar o'z ichiga olgan tarixiy davrlar muddatiga ko'ra aslo teng emas. Biz nazarda tutgan birinchi davr bir necha ming yillarni qamrab olsa, ikkinchi davr IX-XII asrlarni, uchinchi davr XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrlarni, to'rtinchi davr esa XVII dan XX asrning so'nggi o'n yilligiga qadar bo'lgan davrni qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Islomgacha bo'lgan milliy ma`naviyatimiz va uning takomillashishi haqidagi eng muhim manbalar guruhini to'rtga bo'lish mumkin. 1.Zardushtiylikning "Avesto" kitobi va turkiy bitiklar (yozuvlar). 2. Qadim Shumer, Bobil, Ashshur,

<sup>14</sup>Отамуродов С.О. Абдурахмонов М. Хусанов С.Маънавият асослари. . - Т.:, 2010. . - Б.102.

qadim Misr, Yunon, Hind, Xitoy manbalari va Eron shahanshohlaridan qolgan toshbitiklar. 3. Arxeologik yodgorliklar – moddiy ashyolar va turli inshootlar. 4. Xalq og’zaki va yozma adabiyot namunalari, urf - odat va marosimlar, o’yinlar, bayramlar va boshqalar.

IX-XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy va ilmiy bilimlar taraqqiyotida katta o’rin egallagan yangi bir bosqich bo’ldi. Bu davrni tarixda Markaziy Osiyoda ilk uyg’onish davri deb yuritiladi. Bu davrda ilmiy va diniy bilimlar rivojida Markaziy Osiyo jahon madaniyatining markaziy o’choqlaridan biriga aylandi. Arab istilosiga barham berilib markazlashgan feodal davlatlarning yuzaga kelishi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojiga, ilmiy bilimlarning o’sishiga olib keldi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoning Sharq va G’arb savdo va madaniy aloqalar yo’li ustida joylashishi (hozirda bu “Buyuk ipak yo’li” nomi bilan tarixga kirgan) bu o’lkada ilmiy bilimlar va madaniyatning rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatdi. Xuddi shu davrda jahon fani va madaniyati rivojida o’chmas iz qoldirgan mutafakkirlar yetishib chiqdi.

XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy-ma’rifiy tafakkur taraqqiyoti ikki yo’nalishda bordi. Birinchisi Markaziy Osiyoning o’zida ro’y berdi. Ikkinchisi Hindistonda Boburiylar davridagi Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning ijodida namoyon bo’ladi.

Temur va Temuriylar davri, umuman Sharq, xususan Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy, iqtisodi hamda ilm-fani, madaniyati, ma’naviyati, adabiyot va san’ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr, tub burilishdir. Bu davrni hozirgi davr ilm-fanida Markaziy Osiyoda so’nggi Renessans (Uyg’onish) davri deb ham yuritadilar.

Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy; olimlar – Ulug’bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy; faylasuf shoirlar – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, musavvirlar – Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh, xattotlar: Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur va boshqalar mana shu davrda yashab ijod qildilar. Ularning hammasi o’sha davr va

o'zlarigacha bo'lgan insoniyat ma'naviyati, ma'rifati va madaniyati yutug'ining barcha sohalarini mukammal bilib va o'zlashtirib olgan, o'zlari tanlagan sohalarning hali hech kim tomonidan zabit etilmagan cho'qqilarini egallagan ulug'siyimolar, qomusiy ilm, aql egalari bo'lganlar.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoiy, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g'oyalarni ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar. Sezayotgan bo'lsangiz bu davr, Jadidchilik ma'naviyati davri va keyingi bosqich mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o'zbek xalqining madaniyati va ma'naviyatiga tahdid bosqichi bilan bog'langan.

Mustaqillik va ma'naviy poklanish, ma'naviy tiklanish va ma'naviy rivojlanish bosqichi esa bugungi kunda ma'naviyatimiz rivoji va xalqimizning ma'naviy hayotini va shu kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

M.Imomnazarov esa milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomilini bir qator mavjud alomatlarga ko'ra dastlabki tarzda uch asosiy davrga ajratadi:

1. Islomgacha milliy ma'naviyatimizning shakllanishi.
2. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimiz takomili.
3. Yangi davrda jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz nisbati.

Bu davrlar o'z ichiga olgan muddatlariga ko'ra o'zaro aslo teng emas. Birinchi davr necha ming yilni qamrasa, ikkinchi davr 8-9 asrni o'z ichiga oladi, uchinchi davr esa bizning o'lkamiz - Turkiston uchun 5 asr chamasi davom etib, oxirgi 200 yili ko'proq fojialarga to'liq bo'ldi.

Ushbu davrlashtirishning asosida ko'proq tashqi belgilar yotadi. Ularning eng muhim manbalar ahvoli bilan bog'liq. Islomgacha ma'naviyatimiz takomili haqidagi eng muhim manbalar o'lkamizning bugungi milliy hududlaridan tashqarida topilgan bo'lib, asl matnlarning yaxlit va nisbatan mukammallari «Avesto» kitobi va turkiy toshbitiklardir. Ikkinchi qismi bilvosita ma'lumotlar

bo'lib, qadim Shumer, Bobil va Ashshur, qadimgi Misr va Yunon, Hind va Xitoy manbalarida, Eron shohansoholaridan qolgan toshbitiklarda aks etgandir. Uchinchi guruh manbalar arxeologik yodgorliklar bo'lib, ular bevosita yurtimiz hududidan yoki atrof-mintaqadan topilgan moddiy ashyolar va inshootlar bilan bog'liq. To'rtinchi guruh manbalar so'nggi davrlargacha og'zaki an'ana holida yetib kelgan xalq adabiyoti, urf-odat va marosimlar, o'yinlar, bayramlar, xurofiy irim-sirimlar bo'lib, ular yuzasidan uzil-kesil xulosalar chiqarish, ayniqsa, murakkabdir.

Umuman, bunday turli guruh manbalar o'zaro jiddiy qiyosiy tahlilni talab qiladi va oxir-natijada ham ko'pincha muayyan darajada taxminiy xulosalar chiqariladi. Islomgacha ma'naviyat haqidagi tasavvurlarimiz, shu sabablarga ko'ra, baribir uzil-kesil bo'lishi qiyin va qancha qadim zamonlarga kirib borsak, shu qadar tarixiy haqiqat va afsonalar qorishib, chatishib ketadi.

Islom davri manbalari qadim davrga nisbatan beqiyos darajada boy va ishonchliroqdir. Islom davridan boshlab, aytish mumkinki, masalaga ilmiy yondoshuv imkonи jiddiy tarzda oshadi va millatning ma'naviy kamolot bosqichlari mintaqasi madaniyati doirasida aniq tarixiylik kasb etadi.

Uchinchi davr bizga eng yaqin bo'lgani sababli uni o'rganish masalalari tadqiqotchilarining ancha keng doirasini qamrab olgan, chunki manbalar asosan o'zbek, rus va qisman boshqa qardosh xalqlar tillarida saqlanganligidan bu sohada imkoniyatlар yetarli. Mustaqillikkacha ba'zi arxivlar davlat siri hisoblanib, tadqiqotchilar nazaridan pinhon utilgan bo'lsa, bugun ularning eshiklari ochildi va tabiiyki, matbuotimizdagi eng ko'p nashrlar ushbu Yangi davr ma'naviyati muammolariga aloqador bo'lmoqda.

Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanuz yurtimizga ko'rк bag'ishlab turgan qadimiу obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'analari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.<sup>15</sup>

---

<sup>15</sup>Каранг. Миллий истиқолол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент, "Ўзбекистон, 2000, 47-бет.

Shunday qilib, bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga asoslanib, Markaziy Osiyo qadimiy madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lgan degan xulosa chiqara olamiz. Biz yosh avlod bu bilan faxrlanishimiz lozim.

### **1.3. Informatsion dunyoda umuminsoniy ma`naviyatning namoyon bo`lishi global ehtiyoj sifatida**

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma`naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g`oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma`naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. Insonlar, jamiyat rivojlanib borgan sari ma`naviy munosabat, aloqalar rivojlanib boraveradi va ular jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynab kelgan.

Ma`naviyatni uch guruhg'a bo'lish mumkin:

Birinchisi - milliy ma`naviyat, ikkinchisi - mintaqaviy ma`naviyat, uchinchisi - umuminsoniy ma`naviyat.

Milliy ma`naviyat- muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan g`oyat qimmatli ma`naviy boyliklardir.

Mintaqaviy (regional) ma`naviyat- muayyan jug'rofiy mintaqqa millatlariga xos, ular uchun umumiyl bo'lgan ma`naviy boyliklardir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining ma`naviyatidagi; yoki yanada kengroq doirada oladigan bo'lsak, Sharq va G`arb ma`naviyatidagi mushtaraklik, o'xshashlikni olishimiz mumkin. Mintaqaviy ma`naviyatda turli elatlarning umumiyl birligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi.

Umuminsoniy ma`naviyat - butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma`naviy-axloqiy boyliklardir.

Milliy ma`naviyat - boshqa millat ma`naviyatidan tubdan farq qilinadigan ma`naviyat degani emas. Chunki bizdag'i milliy ma`naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo milliy ma`naviyatda boshqa xalqlarning

ma’naviyati aynan takrorlanmaydi. SHunday bo‘lganda edi milliy ma’naviyat bo‘lmas edi va biz bu haqda so‘zlamas ham edik.

Milliy ma’naviyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Milliy ma’naviyat tarixi millatning ma’naviy takomil jarayoni bilan bog‘liq. Unda ba’zan asrlar kunlarga va aksincha, kunlar asrlarga teng bo‘lishi mumkin. Milliy ma’naviy kamolot zamonda, ya’ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi. Bunda esa u ba’zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba’zan esa ma’lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Insoniyat tarixiy jarayoni uchun bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o‘tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari emiriladi, ammo ma’naviyat yuksalib, boyib, tobora kengroq ko‘lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma’naviy tanazzulga yuz tutgan fofijiaviy sharoitlarda ham milliy ma’naviyat yo‘qolmaydi, ko‘لامи va mazmuni jihatdan o‘zi etishgan kamolot bosqichini yo‘qotmaydi. Milliy ma’naviyat erishgan kamolot bosqichini yo‘qotish uchun (shu jumladan, umuman milliy ma’naviyatni ham) ajdodlar yaratgan barcha ma’naviy merosni mahv etish, insonlar xotirasini tamomila o‘chirib tashlash, ulardan hatto irsiy xotirani ham barbod qilib - manqurtga aylantirish kerak bo‘ladi. Bunday holdan Sizu Bizni Ollohnning o‘zi asrasin!

Millat mavjud ekan, milliy ma’naviyat bo‘ladi. Milliy ma’naviyatni yo‘qotish mumkin emas. Milliy ma’naviyatni yo‘qotish uchun qanchalik harakat qilinsa, shunchalik milliylikni, milliy ma’naviyatni saqlash uchun kurash kuchayadi. Xulosa shuki, inson qalbidagi milliylikni yo‘qotish mumkin emas.

Ko‘rinadiki, milliy ma’naviyat hodisasi ham tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko‘p o‘lchamli voqe’likdir. Inson ma’naviy olami o‘lchamlari cheksiz bo‘lib, uni hech bir narsa bilan o‘lhash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma’naviyat avvalo milliy ongda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongi rivojlantirishni tarbiyaviy ishning muhim bo‘g‘imi sifatida olib qaramoqdamiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o‘zlikni anglash sari etaklaydi.

Milliy ma’naviyatning asosiy belgi va o‘zagi - milliy axloq sanaladi. Bizning milliy axloqimizdagi belgilar boshqa xalqlar axloqiy qarashlarida muayyan tarzda namoyon bo‘ladi.

Milliy ma’naviyatda - milliy his, tuyg‘u, ruhiyat ham muhim o‘rin egallaydi. Chunonchi, zamona taqozosi bilan boshqa yurtga safarga borgudek bo‘lsak va o‘sha erda milliy kuy, qo‘sinqni eshitgudek bo‘lsak, bizning vujudimizni ajib bir his, tuyg‘u qamrab oladi va undan ruhiy huzur olamiz, qanoat hosil etamiz. Ya’ni ma’naviy ozuqalanamiz.

Milliy ma’naviyatda - milliy manfaat ham muhim rol o‘ynaydi. Sobiq Sho‘rolar davrida milliy manfaatni millatchilikka yo‘ganlar va milliy manfaat yuzasidan harakat qilgan kishilarni, rahbarlar va yozuvchilarni millatchi deb badnom etganlar.

O‘zbek xalqi uchun umuminsoniy ma’naviyat bilan birga milliy ma’naviyat va uning boyliklari ham g‘oyat qimmatlidir. Bularga o‘zbek xalqining o‘zi yaratgan, boyitgan, saqlab kelayotgan, avloddan-avlodga o‘tib, boyib, sayqal topib, rivojlanib borayotgan milliy-ma’naviy boyliklar, ajdodlardan qolgan axloqiy an’ana, marosimlar, axloqiy pand-nasihatlar va hokazolar kiradi.

O‘rta Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy merosida, manbalarda o‘zbeklarda qadrlangan, o‘zbekona axloq, odobga oid ma’naviy fazilatlar haqida ko‘plab qimmatli fikr, ma’lumotlar mavjuddir. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining «Boburnoma» asarida o‘beklarga xos bo‘lgan ko‘plab ma’naviy-axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular iymon va e’tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, sahovatlilik, xushfe’lllik, shirinso‘zlik, mardlik, odillik, hayolilik, sahiylik, odamiylik, oq ko‘ngillilik, mehnatsevarlik va boshqalardir.

O‘rta Osiyoga sayohatga kelgan German Vamberi «Buxoro yoxud Mavorounnahr tarixi» asarida Oltin O‘rdadagi o‘beklarning musulmoncha tarbiyalanganini, savdo-sotiqlida og‘ir vazminligini, oq ko‘ngillilik va samimiyligini, kamgapligini, sadoqatliligini, dovyurakligini, shinavandligini,

oilaviy munosabatlarda pokligini, mulohazaliligi, andisha bilan to‘g‘ri so‘zlashishini, ota-onaga hurmati va e’tiqodi kuchliligini, birinchi bo‘lib o‘tirmaslik va birinchi bo‘lib so‘zlashmasligini, mug‘ombirlikni bilmasligini, dinga e’tiqodi kuchli bo‘lib, bu jihatdan anatoliyalı turklarga o‘xshashligini ko‘rsatgan.

O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatları o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib ularga do‘stlik, o‘rtoqlik, mehmono‘stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o‘zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe’lllik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlilik, ro‘zg‘orparvarlik, shirinso‘zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo‘ylik, halollik, oru-nomuslilik, to‘g‘rilik, rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-onsa va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g‘urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma’naviy - axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan uning ma’naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi. O‘beklarning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarining o‘ziga xos sharqona axloqiy fazilatlari, ota-onsa, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-ko‘y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog‘liq ma’naviyati faqat o‘tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

O‘zga millatlarning ma’naviy qadriyatları qanchalik ta’sir ko‘rsatmasin kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmono‘stlik singari milliy ma’naviy fazilatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma’naviy xislatlar avloddan-avlodga o‘tib qon-qonimizga singib ketgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus bobida, oila, qarindosh-urug‘larga nisbatan munosabat bobida sharqona, o‘zbekona fazilatlarni tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma’naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ota-onani, yoshi ulug'larni va kichiklarning izzatini o'z o'rniga qo'yish, hurmat qilish ham milliy ma'naviyatimizga kiradi. Bu yo'l istiqlol va istiqbol muammolarini o'tmishning boy tajribasi bilan bog'lashga yaqindan yordam beradi.

Odatda kishilar ko'pincha ikki ishda katta xatoga yo'l qo'yadilar. Birinchisi - yoshlarni hali yosh deb, ularga ishonmaganida, ikkinchisi - keksalarni qariya deb chetga surib qo'yganida. Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog'liq bo'lgan katta tashabbus, kuch va g'ayrat bo'ladi. Keksalar esa hayot yo'lida ko'p issiq va sovuq kunlarni boshdan kechirib, boy tajriba orttirgani uchun ularda uzoqni o'ylab, bosiqlik bilan ish qilish, etti o'lchab bir kesish singari ma'naviy boylik va etuk tafakkur salohiyati bor. O'zbeklarning «qari bilganni pari bilmas», degan hikmatida ko'p ma'no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi, g'ayrati keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan bog'langandagina yaxshi ijobiy samara beradi. Keksa avlodning bilimi, hayot tajribasi yoshlar uchun ma'naviy kamolot va ibrat maktabidir. Keksa avlodning hayot tajribasini mensimaslik hamma davrlarda ham jamiyat uchun falokatli oqibatlarga olib kelgan. CHunonchi, 1920-30 yillarda hali hayotda biror og'ir saboqni ko'rmagan, baland-pastni bilmagan 15-17 yoshlik komsomollar ko'plab ishbilarmon, mehnatsevar dehqonlarni quloq qilish, molumulkini musodara etib, uzoq erlarga badarg'a qilish vazifasini o'z zimmasiga olgani ham katta iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy bo'xronlarga sabab bo'ldi. Yozir ham keksalarning qadriga etmaydigan, ularni mensimaydigan yoshlar oz emas. Bu o'zbek milliy ma'naviyatidagi salbiy bir hol, ko'rinish. Uning oldini olish zarur. Sovet totalitar tuzumi sharoitida ma'naviy-axloqiy fazilatlarning milliy jihatlari, an'analarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi. Ularni ma'naviy qoloqlik ifodasi sifatida talqin etildi. Sharq xalqlarining, jumladan o'zbek xalqining ming yillik ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan hadislar, shariat hukmlari diniy xurofat sifatida qoralandi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan yevropacha an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga

keldi. Yoshlarda asriy milliy ma’naviyatimizga zid bo‘lgan bag‘ritoshlik (farzandni, ota-onani tashlab ketish singari), qotillik (o‘z farzandini o‘ldirib yashirish), xudbinlik, maishiy buzuqlik, giyohvandlik kabi ma’naviy qiyofa yuzaga kelib, ildiz ota boshladi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma’rifatparvar fidoiylar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo‘lgan ma’naviy inqiroz haqida gapirib, bu og‘ir vaziyatdan ta’lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. «Tarbiya, - degan edi Abdulla Avloniy, - bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir».

Bu fikrlarning ahamiyati hozirda ham kamaygani yo‘q. O‘zbek millati faqat milliy ma’naviy kamolat orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma’naviy aynishning oldini olishi mumkin.

Sovet totalitar tuzumi barbod bo‘lishi, O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi jamiyatimiz ma’naviyatida chuqurlashib borayotgan inqirozning oldini olish uchun tangrining inoyati, xalqimizning baxti bo‘ldi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma’naviy poklanish, o‘nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi.

Yosh avlodni, Siz kabi talaba yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g‘urur tuyg‘usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kundagi milliy-ma’naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir. SHu o‘rinda milliy-ma’naviy tarbiya va uning asosiy yo‘nalishlari va mohiyatini aniqlab olish zarur.

Milliy tarbiya - u yoki bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarining milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an’analarni o‘zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo‘lib, u milliy ong va milliy o‘zlikni anglashning sub’ektidir.

Milliy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, vatanparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak insoniylikni rivojlantirish, merosni,

urf-odatni, qadriyatlarni, fan, texnika, texnologiyalarni o‘zlashtirishga intilishni rivojlantirish, mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, or-nomus, insof-diyonat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib etish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

Milliy tarbiyaning yana bir yo‘nalishi – ota-on, qarindosh-urug‘larning hurmatini joyiga qo‘yish, oilaning muqaddasligi tuyg‘ularining barkamol bo‘lishiga erishish, o‘zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotgan o‘zga millatlar va elatlar vakillarining manfaatlarini hisobga olish kabilar tashkil etadi.

Xullas, bиринчи Президентимиз Islom Karimov ta’kidlaganidek, milliy tabiatimizga xos bo‘lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizning ko‘p jihatdan ajratib turadigan bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, oqko‘ngillilik xususiyatlari haqida uzoq gapirish mumkin<sup>16</sup>. Hech birimizni xalqimizga xos ana shunday fazilatlar tark etishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Yuqorida qayd etganimizdek, umuminsoniy ma’naviyat - butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo‘lgan ma’naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma’naviyat uzoq va yaqin o‘tmishdagi hozirda esa ma’naviy jihatdan juda qimmatli, inson qalbida o‘chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo‘llaydigan ma’naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma’naviy boyliklariga esa ilm-fan, jumladan falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot va san’at asarlari, kashfiyat va ixtiolar, ma’naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlik, umuminsoniy axloqiy me’yorlar va boshqalar kiradi.

Umuminsoniy ma’naviyat o‘z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma’naviyat ham doim qadimiy va navqiron bo‘lib turaveradi. Ular umumbashariy ma’naviyat deb ham yuritiladi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalanish imkoniyatlari va u haqda g‘amxo‘rlik qilish kabi ma’naviy mas’uliyat o‘z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi. Adolat, tenglik,

<sup>16</sup> Karimov I.A.Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.24-bet

ahil qo'shnichilik kabi ma'naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda, uni butun insoniyat avaylab-asrab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik va boshqalar ham umuminsoniy ma'naviyat sanalib, u har bir xalq, millatda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

O'zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amxo'rlik qilish ham umuminsoniy ma'naviy jihatlari bilan ajralib turishini yoddan chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalmilalchilik ham umuminsoniy ma'naviyat tizimidan o'rin olgandir.

Yuqoridagi ma'naviyat tushunchalarining millati yo'q. U hamma millat, xalq uchun bab-barobar tegishlidir. Ammo ularning hammasi faqat tuyayyan milliy shaklda namoyon bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviyatda biz milliy ma'naviyatning eng olijanob, eng yuksak ko'rsatkichlarining umumjahon miqyosida mujassamlashgan birligini ko'ramiz.

O'z taraqqiyoti uchun har bir millat umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan, xazinasidan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruratdir. Buningsiz zamonaviy ilg'or millat haqida orzu qilish mumkinmas. Umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig'idan chetga chiqishga, olamni kengroq ko'rish va kuzatishga undaydi.

Agar milliy ma'naviyat bo'lmasa umuminsoniy ma'naviyat yo'q, umuminsoniy ma'naviyatlarsiz esa hozirgi zamon ilg'or millatlari yo'q. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma'naviyatning yaratuvchilaridir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjixat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam»<sup>17</sup>. Umumjahon, umuminsoniy ma'naviyat esa hozirgi zamon ilg'or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir.

<sup>17</sup> Каримов И. Донишманд халимизнинг мустақкам иродасига ишонаман.«Фидокор», 2000 йил, 8-ион.

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida esa milliy va umuminsoniy ma’naviyatning ana shu dialektik bog‘liqligini hisobga olishimiz davr talabi. Buni esa birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ma’naviyat to‘g‘risidagi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda hisobga olganligining guvohimiz. Xususan, Prezidentimiz «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida «Milliy madaniyatning o‘ziga xosligini tiklashga alohida e’tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o‘z-o‘zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari, ideallaridan bizning ko‘p millatli jamiyatimiz an’analalaridan ajralib qolishi mumkin emas»<sup>18</sup>, – deb ta’kidlagan edi. Mustaqillikni mustahkamlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma’naviyatimiz boyliklari bilan birga umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanish negiziga qurmog‘imiz lozim.

---

<sup>18</sup> Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари, 62-бет.

**HARAKATLANTIUVCHI KUCH SIFATIDA****2.1. Ma`naviyat va ijtimoiy taraqqiyotning uzviyligi.**

Ma`naviyat, bu faqat insonga xos bo`lgan ajoyib xislat va fazilatdir. Insonning insonligi, olamdagi boshqa jamiki mavjudot-u maxluqotlardan ulug`i va yuksagi ekanligining, borliqning ko`rki va sharafi, eng oliv qadriyatlarning asosiy boisi, belgilovchi sababi, uning ma`naviyat sohibi ekanligi, boshqacha aytganda, ma`naviyat bilan tutash bo`lganligidir.

Inson – aqlga, idrok, bilish qobiliyatiga, ongga, tafakkurga ega bo`lganligi uchun kuchlidir. Shular tufayli u boshqa barcha mavjudotlardan ajralib turadi.

Sharqning buyuk mutaffakkirlari takidlaganidek, insonda bebahoh marvarid – zakovat mavjud. Unda tabiat va jamiyat sir-asrorlarini va yuksak cho`qqilarini bilish qobiliyati, eng nodir iste`dod jamuljamdir.

Buyuk faylasuf alloma Abdulqosim Firdavsiy ``Shohnomoa`` nomli nodir asarida inson aql-idroki va tafakkurini haqiqatning o`lchoviga tenglashtiradi. Shunday qilib Abdulqosim Firdavsiy nomi jahonga mashxur mutafakkir sifatida,

Aql bilan tirik jon, bilmaydi zavol,

Aql turmush asli, buni yodlab ol.

Aql yo`l ko`rsatib, dilni etar shod

Har ikki olamda aqlli obod

Agar aqlli xira bo`lsa har inson

Shodlikka erisha olmas bir zamon<sup>19</sup>

Aql – idrok va tafakkur, bilim va intellektual salohiyot, ma`naviyat va ma`rifat oliv mavjudot bo`lgan insonga mohiyat, faoliyatga maqsad va yo`nalish beradi.

---

<sup>19</sup> Абдулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Биринчи китоб. Форсийдан Шоислом Шомуҳаммадов таржимаси. – Т: Фоғур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 35-бет.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning takidlashicha, ma`naviyatning inson uchun ahamiyati shunchalik kattaki, ``Uni o`lchab ham, payoniga yetib bo`lmaydi. U inson uchun butun bir olam``<sup>20</sup>. Ma`naviyat insonni inson darajasiga ko`taradigan asoslarning asosidir.

Inson o`z hayatini, o`zligini ma`naviyatdan ayricha tasavvur etolmaydi. Inson hayoti va faoliyatining ma`naviyat bilan tutashmagan, ma`rifatga, ilm-fanga ehtiyoj sezmaydigan biron-bir sohasi yo`q va bo`lmaydi ham. ``Inson o`zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o`ylab mehnat qilib yashagandagina ma`naviyat bilan tutashadi``<sup>21</sup> - deydi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Inson hech qachon va hech bir jamiyatda ma`navaiyatsiz va ma`rifatsiz yashamagan va yashay olmaydi. Inson ma`naviyat bilan tirik va go`zal. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ``O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li `` asarida takidlashicha, ``Ma`naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buлоqdan chanqog`ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar, qiyinchiliklar bilan ma`naviyat chashmasini izlaydi. Yer, ota-onas, bolalar, qarindosh-urug`lar, qo`ni-qo`snilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma`naviyatning ma`nosi ana shunday juda keng``<sup>22</sup>

Inson o`zining qalbi, ruhiyati, zohiriylari va botiniy olamining birligi, so`zi bilan ishining mutanosibligi, xullasi kalom, ma`naviyati va ma`rifati bilan go`zal, mumtoz va komil.

Inson o`zining har bir hatti-harakatini, qilmoqchi bo`lgan ishini oldindan o`ylab, aql tarozusiga solib, yetti o`lchab amalga oshirishi bilan ulug` va mukarramdir.

---

<sup>20</sup> Ислом Каримов. Ўзбекистон: миллий, истиқолол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Т; Ўзбекистон, 1996, 80-бет

<sup>21</sup> Ислом Каримов. Ўзбекистон: миллий, истиқолол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Т; Ўзбекистон, 1996, 81-бет

<sup>22</sup> Ислом Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиқолол ва тараққиёт ёли. – Т; Ўзбекистон, 1992, 80-81-бет

Birinchi Prezidentimiz ta`limotida ma`naviyatning ijtimoiy ildizlariga alohida e`tibor berilganligi bejiz emas, albatta. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ma`naviyat taqdirning ehsoni emas, uni insonning tug`ma xususiyati deb ham bo`lmaydi, degan so`zida juda katta ilmiy-falsafiy ma`no bor.

Jamiyat taraqqiyoti haqidagi har qanday g`oyalar avvalo insonning ijtimoiy tafakkurida shakllanadi, keyin e`tiqodga aylanib, faoliyatiga yo`nalish beradi.Insonning har qanday amaliy faoliyati – mehnati, ma`rifiy, tarbiyaviy, mafkuraviy tadbirlar asosida amalga oshadi. Mehnatda insonning qobiliyati va iste`dodi, aql –idroki va tafakkuri nomoyon bo`ladi. Inson aqli, qo`li bilan nimaiki qilmasin, uning zaminida fikr, tushuncha, bilim, iste`dod, qobiliyat sifatida shakllangan ma`naviyat yotadi.

Inson g`oyasiz, maqsadsiz, o`y-fikrsiz, aql-idroksiz va tafakkursiz yashay olmaydi.Biron-bir ishni qilishga kirishishidan oldin amalga oshirmoqchi bo`lgan yumushini miyasida necha-necha bor o`ylab ko`radi, rejalashtiradi.Bironta ham mehnat qurolini, moddiy va ma`naviy boylikning bironta ham turini inson o`zining bilimi va tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yarata ham, takomillashtira ham olmaydi.Inson amaliy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o`zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati uzviy ravishda birlashadi. Moddiy boyliklarni insonlar qo`l va oyoqlari, bosh va barmoqlari bo`lgani uchungina emas, balki yuksak ma`naviy qadriyatlarni ongli va qalbida chuqur singdirganligi tufayli yaratadilar.Ana shu fikrning o`zi ham ma`naviyatning shakllanishi va rivojlanishini, inson qalbida kurtak otishi amaliy jarayonlar bilan uzviy bog`liqligini ko`rsatib va isbotlab turibdi.

Inson birdaniga, favqulodda ma`naviyat sohibi bo`lib qolmaydi. Ma`naviyat insonda uzqa yillar davomida shakllanadi. U inson qalbida ko`plab qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlar ta`sirida nish uradi, ildiz ota boshlaydi.

Ma`naviyat insonda, eng avvalo, ona allasi, ona mehri va ta`lim-tarbiyasi, ota namunasi, bobo va buvilar o`giti, oqilu dono so`zlari, hayotning boy tarixiy saboqlari, mahalla-ko`y, ijtimoiy muhit ta`sirida shakllanib, rivojlanib, takomillashib boradi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ana shu masala ustida

fikr yuritib, ``Ma`naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o`giti bilan birga singadi``<sup>23</sup>, - deb takidlaydi.

Ma`naviyatning inson qalbida asta-sekin shakllana va rivojiana boshlashida xalq an`analari va rasm-rusumlarining, maqollar, matallar, qo`shiq va rivoyatlar, aruz va baytlar, ruboiylar, hikmatlar, ertak va dostonlar beqiyos ahamiyatga ega. O`z xalqining tarixi va madaniyatini, odob-axloqini, milliy qadriyatlarini puxtashishiq bilmagan kishida ma`naviyat va ma`rifat haqidagi bilim va tasavvur yuzaki bo`ladi.

Til - xalq ma`naviy hayotining asosidir.Binobarin, milliy til gurkirab rivojlanmasa milliy ong o`s maydi.Milliy ong, milliy madaniyat o`s masada kishilarda milliy g`ururu, milliy faxr-iftixon o`s masadan qoladi. Til – har bir xalq va millatning milliy o`zligini namoyon qilishining muhim vositasidir.

Xalqning madaniy-manaviy boyligi, aql-idroki va tafakkuri, tarixi, madaniy merosi uning tilida o`z ifodasini topadi.Ana shu ma`noda olganda, til xalqning qalbi, madaniy-ma`naviy yetukligi ko`rsatkichidir.Har bir tiul shu til egasi bo`lgan xalq uchun buyuk va bebahodir.

Takidlab o`tganimizdek, shaxs ma`naviy kamolotining zarur shartlaridan biri – ona tilini biliшdir. Har bir kishining madaniy-ma`naviy saviyasi eng avvalo, o`z ona tilini, xalqi tarixi, madaniyatini, qadriyatlarini, milliy urf-odatlarini va an`analarini qanchalik chuqur bilishi, e`zozlashida namoyon bo`ladi. O`z ona tilini bilmagan kishi boshqa xalqlarning tillarini bilgan taqdirda ham uning qadriga yeta olmaydi. Til millat mavjudligi va kamolatining muhim belgilaridan biridir.

Ma`naviyat mazmun jihatidan nihoyatda keng va serqirradir. Vatanga sodiqlik, o`z Vatani, oilasi, nasl-nasabi, xalqi, millati shon-shuhratini ulug`lash, O`zbekistonga, uning yeri, tarixi, xalqlariga muhabbat – bularning hammasi ma`naviyat, ma`naviyatlilik belgilaridir. ``O`z oilasi, nasl-nasabi bilan faxrlanish vatanparvarlik tuyg`usiga chuqur hamohangdir.Bu, eng avvalo, oilaviy an`analarni avaylab saqlash va boyitish, ota-bobolarining muborak nomlariga dog`

---

<sup>23</sup> Ислом Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт ёли. – Т; Ўзбекистон, 1992, 80-бет

tushirmaslikka intilish, o`z mehnati, bilimlari bilan nasl-nasab obro`sini mustahkamlash, odamlarning hurmat-ehtiromlariga sazovor bo`lish istagidir``<sup>24</sup>

Respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar va millatlarning manfaatlarini, tillari, madaniyatlarini, milliy urf-odatlari, an`analari, qadriyatlari va tarixiy meroslarini qonunlar, ijtimoiy adolat mezonlari asosida hurmat qilish ham ma`naviyatdir.Yurtimizda yashayotgan barcha xalq vakillariga odilona qarash, ularga mehribonlik qilish insonning ma`naviy burchidir.

Umuminsoniy, diniy qadriyatlarga rioya etish, tabiatni, tabiiy boyliklarni e`zozlash, suvni, havoni, tuproqni musoffo saqlash, ifloslanishiga yo`l qo`ymaslik, jamiyat, davlat, fuqarolar mulkini muhofaza etish, jamiyatda osoyishtalik va tinchlik, ahillik, totuvlik qaror topishiga hissa qo`shish, millatimiz faxri bo`lgan olimu fuzalolarni hurmat qilish – bularning hammasi ma`naviyat serqirraligining belgilaridir.

Ma`naviyat serqirraligi, ma`naviy kamolot jarayoni cheksiz ekanligini ko`rsatuvchi asosiy omillar uning rivojlanish imkoniyatlaridir. ``Har bir tarixiy davr, - deb yozadi akademik E.Yusupov, - konkret tarixiy sharoit, ehtiyoj va imkoniyatlar bilan taqoza qilingan holda ma`navaiyatning yangi shakllarini va mezonlarini yaratadi.Bu mezonlar qandaydir bir suniy qoida emas, balki tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida inson kamolotining imkoniyat va ehtiyojlarining ifodasidir. Jamiyat taraqqiyoti oldinga qarab boruvchi jarayon bo`lganligi sababli uning asosiy tarkibiy qismi bo`lgan ma`naviy kamolot ham uzluksiz davom etaveradi.Tarixiy taraqqiyotning har bir davri ma`naviy komolotning yangi bosqichidir``<sup>25</sup>.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida ilmiy-nazariy asoslاب berilganidek, ma`naviy kamolot har qanday insonning, xalqning , jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo`q joyda hech qachon baxt-saodat bo`lmaydi.Biron-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma`naviy va axloqiy

---

<sup>24</sup> Ислом Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт ёли. – Т: Ўзбекистон, 1992, 80-бет

<sup>25</sup> E.Yusupov. Inson kamolotining ma`naviy asoslari. –Т: 1998, 138-139-bet

qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o`z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Dunyodagi har bir davlat, har bir millat katta-kichikligidan, yerosti va yerusti tabiiy boyliklaridan qatiy nazar o`zining taraqqiyoti jarayonida ilm-fan, madaniyatga va ma`rifatga, boshqacha aytganda, odamlarning intellektual salohiyatiga, aqliy boylikka juda katta ehtiyoj sezadi. Bu uning obyektiv ehtiyoj, tarixiy zaruriyatidir. Bu vaqtincha bo`lgan ehtiyoj emas, balki har doim talab qilinadigan zaruriyatdir.

Jahon tarixiy tajribasining ko`rsatishicha, faqat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotga asoslangan jamiyat va davlatning tag zamini mo`rt bo`ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot madaniy, ma`naviy va ma`rifiy o`sish o`zgarish, rivojlanish bilan chambarchas bog`langanda jamiyat taraqqiyoti behad tezlashadi va yuksak samaralar beradi. Darhaqiqat, ma`navayat har qaysi jamiyat hayoti va taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi, hal qiluvchi omilidir.

Tarixda ilm-fan, madaniyat va ma`rifatga, zamonaviy texnika va texnologiyaga, ilg`or tajribalarga befarq qaraydigan jamiyat, davlat, xalq va millat bo`lgan emas.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti taqdirini ma`naviy-ma`rifiy jihatdan yetuk kishilar hal qiladi. Davlatning kuch-qudratini, istiqboli porloq bo`lishini, jahon taraqqiyotida tutgan o`rni va mavqeini odamlarning intellektual salohiyati, aqliy jihatdan yetuk va barkamolligi belgilaydi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov takidlashicha, ``Taraqqiyot taqdirini ma`naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma`naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma`naviy salohiyat – ma`rifatli insonning ikki qanotidir``<sup>26</sup>

Qaysi mamlakat, millat fan va texnika yutuqlarini mukammal o`rganish va hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo`lsa, buni davlat siyosati darajasiga ko`tarsa uning kelajagi porloq bo`ladi. Bunga misollar juda ko`p. ``Aqliy mehnat

---

<sup>26</sup> Ислом Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. З-жилд. – Т: Ўзбекистон, 1996, 34-бет.

tufayli taraqqiy topganh davlatlardan olib ko`raylik, - deydi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, - Yaponiya yoki Janubiy Koreyaning biznikidek ulkan tabiiy boyliklari bormi? Yo`q.Lekin dunyoning eng ilg`or texnalogiyasi ana shu mamlakatlarda joylashgan.Men bu davlatning bugungi boyligi va tez rivoj topishi, eng nufuzli va eng qudratli davlatlar safiga kirishi sabablarini, avvalo, shu jamiyatning, shu xalqlarning o`z intellectual boyligidan oqilona foydalanishi, bu mamlakatlarda yashayotgan insonlarning o`z burchlarida, o`z vazifasiga vijdonan, ma`suliyat bilan qarashda, deb bilaman

O`z tarixi, o`z merosiga yuksak hurmat, shu bilan birga, jahonda eng katta xazina hisoblanmish intellektual salohiyatini o`z hayotida, o`z iqtisodida mujassamlashtirish ana shu davatlarning ham moddiy, ham ma`naviy boyligi asosini tashkil etadi deb aytsak, yanglishmagan bo`lamiz``<sup>27</sup>

Ma`naviyat va ma`rifatning jamiyat taraqqiyotida tutgan o`rni va ahamiyati tarixning burilish davrlarida benihoya ortib boradi.Buning o`ziga yarasha sabablari, qonunlari bor, albatta.Chunki mamlakatning iqtisodiy qudratini, uning ertangi kunini, boringki, jahon svilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o`rni va egallagan mavqeini ham pirovard natijada aql-zakovat hal etadi.Zero, ilmga intilish yo`qolsa, fan taraqqiy etmaydi, darhaqiqat ilmu-ufron rivojlanmasa, jamiyatning kelajagini tasavvur etib bo`lmaydi.

Jamiyatning, xalq va millatning , insonning ma`naviyatga bo`lgan talab va ehtiyoji shu qadar kattaki, uni hech qachon, ikkinchi o`ringa surib qo`yish ham, shuningdek, ma`naviyat masalasiga iqtisodiy muommolarni hal qilib bo`lgandan keyin o`tish mumkin, deb o`ylash ham tamomila xatodir.

``Ma`naviyatga intilish inson uchun moddiy ne`matlarni o`zlashtirish, yeyish, ichish, kiyinishga nisbatan ham muhimroq ehtiyojdir.Negaki, ma`naviyat barqaror bo`lmaqan joyda modddiy ne`matlarni ishlab chiqarish va iste`mol qilish madaniyati ham yuksak bo`lmaydi.Yetuk ma`naviyat, aqliy salohiyat sohibi

---

<sup>27</sup> Ислом Каримов. Биздан озод ва обод ватан қолсин. 2-жилд.\_Т: Ўзбекистон,1996, 254-бет

bo`lgan kishilargina kelajakni oldindan ko`rishga, og`ir sharoitlarda ham yuksak maqsadlarni, oldiga qo`yib unga iymon va e`tiqod bilan intilishga qodir bo`ladi``<sup>28</sup>

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma`naviy kamolotida yangi davrning yuzaga kelishidir. Jamiyatning, insonning bilim, aql-idrok, ma`naviy-ma`rifiy kamolotga bo`lgan ehtiyoji to`la qondiraladigan bosqichi hech qachon bo`lmaydi.Insoniyat ma`naviyatga bo`lgan ehtiyoji nihoyasizdir. Jamiyat taraqqiyoti oldinga qarab tadrijiy rivojlanib, tobora takomillashib, kengayib, chuqurlashib borgani kabi ma`naviy-ma`rifiy kamolotning ham so`nggi nuqtasi bo`lmaydi. Ma`naviyat borasida bir ehtiyojning qondirilishi yana ko`plab talab va ehtiyojlarni yuzaga keltiradi.Yuzaga kelgan yangi ehtiyojlarning ro`yobga chiqishi jamiyat taraqqiyotini o`tmishdan kelajakka tomon to`xtovsiz ilgarilab borishiga imkon yaratadi.Jamiyatning ma`naviy kamoloti imkoniyatlari cheksizdir.Bu cheksizlik insonning tabiat, u yashayotgan jamiyatning imkoniyatlari bilan belgilanadi.Jamiyat taraqqiyoti jarayonida takomillashib, kengayib va chuqurlashib borayotgan axloqiy, huquqiy burch va ma`suliyat bilan bog`langan manfaatlar ma`naviy kamolotning yangi muommolarini keltirib chiqaraveradi.Muayyan oqilona manfaatning chegarasidan ikkinchisiga tadrijiy yo`l bilan o`taverishi ma`naviyat taraqqiyotning hal qiluvchi omildir.

Agarda ma`naviy-ma`rifiy ehtiyoj va zaruriyat bo`lmasa, inson kamoloti ham to`xtaydi, jamiyat taraqqiyoti sustlashib, sekinlashib ketadi.Ana shu ma`noda olganda, ma`naviyat va ma`rifat inson uchun ham, xalq va millat taraqqiyoti uchun ham behad muhim va zarurdir.Ma`naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.``Ma`naviyat turli xalqlar va millatlar kishilarni qon-qardosh qiladi.Ularning taqdirini o`zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi.... Ma`naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir.U yo`q joyda hech qachon baxt-saodat bo`lmaydi.Nafaqat ko`hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko`plab misollarini beradi``<sup>29</sup>

<sup>28</sup> Botir Xudayorov.Ma`naviy mezonlarga yangicha yondashish.//Muloqot,1998, 4сон.17-бет

<sup>29</sup> Ислом Каримов. Ўзбекистон: миллий, истиқол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т; Ўзбекистон, 1996, 80-81-бет

Aytiganchalardan ko`rinib turganidek, ma`naviyat xalqlar, millatlarni, odamlarni bir-biridan ajratmaydi, balki birlashtiradi, yakdil qiladi, qon-qarindoshlik aloqalarni mustahkamlaydi, ahilllik, hamkorlik, hamjihatlikni kuchaytiradi.

Xalqlar va millatlarning ulug`vorligi milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy xususiyatlarga ega ekanligida, jahon svilizatsiyasiga qo`shadigan hissasidadir.

## **2.2. Globallashuv sharoitida ma`naviyatga bo`lgan ehtiyojning ortishi.**

Dunyodagi biron ta ham xalq o`z milliy boyliklari doirasidagina rivojlana olmaydi. Agar biron-bir millat boshqa millat bilan umumiy aloqada bo`lmay, jahon okeanidagi orolga o`xshab qolganida, u baxtsiz millat bo`lgan bo`lur edi. Bunday millat jahon svilizatsiyasi samaralaridan foydalana olmasdi. Shuni aytish kerakki, biron ta xalq va millat umuminsoniy madaniyat va ma`naviyatdan ajralgan holda o`zining alohida tarixi va madaniyatiga ega emas. Barcha xalqlarning ma`naviy-ma`nadiy va iqtisodiy taraqqiyot tarixi o`zaro tutashib, bir-biri bilan chirmashib ketgan.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, milliy ma`naviyati rivojlanmagan, milliy birlik, milliy birdamlik tuyg`ulari zaif bo`lgan xalqlarda yuksak milliy ong ham, milliy g`urur ham kuchsiz bo`ladi. Agar ma`naviyat barbod bo`lsa, odamlar e`tiqodsiz bo`lib qoladi, odamlarda vatanparvarlik zaif bo`ladi.

Milliy madaniyat qobig`i ichida qolib, jahon madaniyati, boshqa xalqlarning madaniy-ma`naviy boyliklarini o`rganishdan butunlay voz kechishi mumkin emas bunday yo`l millatni kamolatga emas, balki tanazzulga olib kelishi turgan gap. O`z qobig`i ichida o`ralib qolgan millatning madaniyati, ma`naviyati va ma`rifati hech qachon kamol topa olmaydi. Milliy xudbinlik o`z holicha, alohida holda emas, balki jahon madaniyati va ma`naviyatining tarkibiy qismi sifatida shakllanadi va rivojlanadi. ``butun dunyo yagona va o`zaro bog`liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini bolalarimiz va nabiralarimizga obod va bahtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir``<sup>30</sup>

Yuksak ma`naviyat sohibi bo`lgan inson, birinchi Prezdenntimiz Islom Karimov asarlarida takidlanganidek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga qatiy rioya qiladi, iymon-e`tiqodli, insofu diyonatli, oriyatli bo`ladi, halol yashaydiu, mehnat qilganda o`z manfaaqtidan tashqari davlat, millat, jamiyat manfaatlarini ham unutmaydi, mehr-oqibatli, muruvvatli bo`ladi, o`zi mansub bo`lgan xalq va millatnigina emas, balki o`zga millatlarni ham, ularning tili, tarixi, madaniyati, urf-

<sup>30</sup> Каримов И.А. XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т: Ўзбекистон. 1997, 298- бет

odatlari, qadriyatlarini ham hurmat qiladi. Buni birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning, ``ma`naviyat o`z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.tarixga murajaat qilar ekanmiz, bui xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak.Xotirasiz barkamol inson bo`lmajanidek, o`z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo`lmaydi``<sup>31</sup>, - degan so`zlardan bilib olish mumkin.

Ma`naviyat kishilarda o`zaro muloqotga ehtiyojini tug`diradi, odamlar o`rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni kuchaytiradi, mehr-oqibatni mustahkamlaydi.

Karimov I.A. XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T: O`zbekiston. 1997Madaniyat, ma`naviyat va ma`rifat jahon xalqlarini o`zaro yaqinlashtiradi.Har xil irq, jins, elat va millatlarga mansub bo`lgan odamlardaadolatparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, iymon-insoflilik, vijdonlilik, mehr-muruvvatlilik, rahm-shafqatlilik, oqibatlilik, hamkorlik, hamdardlik, do`stlik, bilimga, haqiqatga tashnalik, istiqbolni ko`ra bilish va unga ongli intilish, umumiyy uymiz bo`lgan Yer kurrasini tinchlik, barqarorlik holatda saqlashga harakat qilish, tabiiy ofatlarga, rak, spid kabi dahshatli kasalliklar va epidemiyalarga, ekologik xavf-xatarlarga qarshi bиргаликда, hamjihat, hamkor, qo`lni qo`lga berib kurashish singari umumbashariy, umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashga asos bo`lib xizmat qiladi.Ma`naviyat va ma`rifatparvarlik barcha davrlarda ham ijtimoiy, ma`naviy yuksalishning, inson kamolotining muhim omillaridan biri bo`lgan.

Agar jamiyat hayotida ma`naviy-ma`rifiy omillar barcha davlatlar siyosatining asosiy yo`nalishi bo`lmasa, axloqiy yetuklik, hamkorlik, hamjihatlik, hamfikrlik, insonparvarlik, demokratiya va qonun ustuvorligiga tayanish, fan va texnika yutuqlaridan taraqqiyot va inson manfaatlari yo`lida foydalanishga erishilmassa, inqiroziy jarayonlar, falokatli to`qnashuvlar, ekologik fojialar ko`payib va kengayib boraveradi.

---

<sup>31</sup> Каримов И.А. XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т: Ўзбекистон. 1997, 80- бет

Ma`naviyat, ma`rifat va madaniyat kelajak sari odimlayotgan insoniyat oldida qanday milliy, mintaqaviy muommolar, qiyinchiliklar, sinovlar turganligini yetarli darajada aniq tasavvur etishiga o`zining ijobiy ta`sirini ko`rsatadi. Barqarorlik va xavfsizlik yo`lida tahdid solib turgan muommolar nimalardan iboratlilagini, ularga nimalarni qarshi qo`yish mumkinligini ilmiy idrok etishda qo`l kelmoqda. Madaniyat va ma`rifat yutuqlariga asoslanmasdan turib insoniyat kelajagi va taraqqiyoti bilan bog`liq bo`lgan xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim, barqarorlikni qanday ta`minlash darkor, taraqqiyot yo`lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin, degan qator murakkab savollarga aniq va mukammal javob topish amrimaholdir.

Bugungi tezkor globallashuv jarayonida ma`naviyatni saqlab qolishning yagona chorasi insonning qoniga, joniga ma`naviyatni singdirishdir. Xo'sh, bu qanday amalga oshiriladi?

Bu muhim vazifaning umumiy yo`nalishini birinchi Prezidentimiz shunday belgilab bergen: «Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo, ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o`zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta`sirini o'tkaza olmaydi».

Tarbiyaning eng samarali usullaridan biri o'rnak bo'lish orqali ta'lim berishdir. Ya'ni, yoshlarimizga tarbiya beradigan mutaxassislar, ustoz-tarbiyachilar, avvalo, o'zlari tarbiyalangan bo'lmoqlari va yoshlarga oliy namuna maktabi vazifasini o'tamoqlari lozim. Ma`naviyat tarbiyachining yurish-turishida ufurib tursa, u milliy urf-odatlarga sodiqlik, qadriyatlarga hurmat ko`rsatsa va bunga o'z hayotida amal qilsa, ko'zlangan maqsadlarga erishish samaraliroq bo'ladi.

Bu borada vatanparvarlik, ezgulik, xayr-saxovatni tarannum etuvchi badiiy asarlar, filmlarning ham o’rni beqiyos. Agar film yoki badiiy asar yuqori sifatli bo’lsa, uning ijobiy ta’siri boshqa har qanday vositadan kuchli bo’lishi shubhasiz. Yoshlarni sport ishlariga muntazam jalb etish ham yuqori samara berishi ma’lum. Do’stlik, vatanparvarlik g’oyalarini singdirishda sportdan o’tadigani yo’q. Ma’rifiy ishlar bilan birga sport musobaqalarini barobar olib borish yoshlarimizning ham jismonan, ham ma’nan sog’lom bo’lishlarini ta’minlaydi. Bu tadbirlarni erta, imkon bo’lsa, bog’cha yoshidan boshlash kerak. Chunki bu davrda murg’ak qalblarga yo’l topish oson bo’ladi. Ayni shu davrda ularda ma’naviyat immunitetini shakllantirish mumkin.

Bizning ma’naviyatimiz shunday bir hayot yo’liki, shaxsni, davlatni va hatto jamiyatni usiz tasavvur etib bo’lmaydi. U har jabhada hayotimizga singib ketgan. Demak, ma’naviyatni saqlab qolish uchun davlatning aralashuvi jamiyatdagi plyuralizmga zid harakat emas, balki xalqning istayotganini o’ziga qaytarishdir. Zero, demokratiya, plyuralizm degani bu - birovga zararing tegmasa, istalgan buzuqlikni qilishing mumkin, degani emas.

### **2.3. Yangilanayotgan O`zbekistonda ma`naviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar xususida**

Ertangi kunimiz, hayotimizning farovonligi, zamondan orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davlatlardan va xalqlardan kam bo`lmaslik, bir so`z bilan aytganda, ertangi istiqbolimiz, barcha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishida, birinchi navbatda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, voyaga yetkazishga bog'liqdir.

Mamlakat ma`naviy hayotini yanada yaxshilashda 1994-yil Prezdent qarori bilan tashkil etilgan ``Ma`naviyat va ma`rifat`` jamoatchilik Markazi muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Mamlakatimizda milliy g`oya targ`iboti va ma`naviy-ma`rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyligi va tasirchanligini oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagি qarori bilan Respublika Ma`naviyat va ma`rifat Kengash tarkibida ikki markaz – Respublika Ma`naviyat targ`ibot markazi va Milliy g`oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.Bosh vazir Kengash raisi, hokimlar viloyat hududiy kengashlari raisi etib belgilandi.Ma`navaiy-ma`rifiy ishlar tizimi zamon va sharoit taqozoosiga ko`ra takomillashtirildi. Bugungi kunda dunyodagi murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.Shu sababli O`zberkiston Respublikasi Prezenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldagи ``Ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko`tarish to`g`risida``gi qarori qabul qilindi.Unga muvofiq, Respublika Ma`naviyat va ma`rifat kengashining Respublika Ma`naviyat targ`ibot markazi hamda Milliy g`oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo`li bilan ularning negizida Respublika Ma`naviyat va ma`rifat markazi qayta tashkil etildi.O`zbekiston Respublikasi Prezenti Respublika Ma`naviyat va ma`rifat kangashiga raislik qilishi belgilandi.

2016-yil dekabr oyida O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Shavkat Mirziyoyev keldi va uning strategik taraqqiyotiga asoslangan keng ko`lamli jadal islohotlar davri boshlandi.Natijada hayotimizga yangi iboralar, xususan, ``xalq

bilan muloqot``, ``xalq qabulxonalar``i, ``tanqidiy tahlil``, ``qa`tiy tartib-intizom``,  
``eng yosh kitobxon``, ``harakatlar strategiyasi``, ``o`z bolangni o`zing asra``  
singari tushunchalar kirib keldi va hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Madaniy-ma`naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta`lim  
tizimidir.Chunki zamon talablariga javob beradigan , ilgo`r fan-texnika,  
texnalogiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan jamiyatni  
yuksaltirib bo`lmaydi.O`zbekistonda ta`lim sohasidagi siyosat 1997-yil 29-  
avgustda qabul qilingan ``Ta`lim to`g`risida``gi yangi tahrirdagi qanuni hamda  
Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o`z aksini topdi.

Maktabgacha ta`lim tizimi uzlucksiz ta`limning birlamchi, eng asosiy  
bo`g`inidir.Maktabgacha ta`lim, 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog`chasida va  
boshqa ta`lim muassasalarida olib boriladi.Mutaxassislarning ilmiy xulosasiga  
ko`ra, inson o`z umri davomida oladigan barcha axborotr va ma`lumotning 70  
foizini 5 yoshgacha bo`lgan davrda oladi.Shu bois, bolalarning sog`lom va bilimli,  
yetuk salohiyatli kadrlar bo`lib voyaga yetishida bog`cha tarbiyasi juda muhim  
o`rin tutadi.Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika  
bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta`lim muassasalari tarmog`ini  
kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta`minlash maqsadida O`zbekiston  
Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda ``Maktabgacha  
ta`lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to`g`risida``gi farmonni  
imzoladi.Unga ko`ra, Maktabgacha ta`lim vazirligi tashkil etildi.

Ta`lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, 12 yillik ta`limni takomillashtirish  
yo`lidagi tadbirlar kutilgan natijani bermadi.Yig`ilib qolgan muommolar sohani  
tub isloh qilishni, dunyoning crivojlangan mamlakatlari tajribvasidan fioydalanish  
zarurligini taqozo qiladi.2017-yil umumta`lim va o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi  
tizimida tub islohotlar yili bo`ldi.Xalq qabulxonalar va Prezidentning virtual  
qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika  
maktablaridagi bitiruvchilarining ota-onalari o`rtasida o`tkazilgan so`rovnama  
natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3,  
ya`ni 12 yillik majburiy ta`limdan 11 yillik ta`limga o`tildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralkdagi ``O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida``gi farmoniga muvofiq, 2017-2021-yillarda oliy ta`lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o`quv dasturlarini yanadan zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko`rsatish va moliyalashtirishning qo`shimcha manbalarini izlashda oliy o`quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo`li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirilib boriladi.Harakatlar Strategiyasida ta`lim va o`qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o`tishda oliy ta`lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirishdagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.Ana shuni nazarda tutib, Prezdent Shavkat Mirziyoyev ``Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellectual va ma`naviy salohiyatga ega bo`lib dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz``, degan edi.2017-yil 10 yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga bo`lgan ehtiyojlar inobatga olinib, O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sirtqi ta`lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta`lim takomillashtirildi.2017-yil 16-noyabrda O`zbekiston espublikasi Prezidentining ``Respublika oliy ta`lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o`tkazish tartibini takomillashtirish to`g`risida``gi qarori qabul qilindi.Unga muvofiq 2018-2019-o`quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, sanat, dizayn, tasviriy va amaliy san`at, musiqiy ta`lim, sanatshunoslik, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta`lim yo`nalishlarida test sinovlari o`tkazilmaydi. Masalan, o`zbekiston davlat konservatoriysi, o`zbekiston davlat san`at va madaniyat institute, kamoliddin behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute, o`zbekiston davlat jismoniy tarbiya institute va alohida iqtidor talab etadigan ta`lim yo`nalishlariga faqat ijodiy imtihonlar orqali qabul qilish yo`lga qo`yiladi.

Oliy o`quv yurtidan keying ta`lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellectual salohiyatini namoyon etish

imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilg`or xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini o`rgangan holda 2017-yilning 1-iyulidan boshlab o`liy o`quv yurtidan keying ta`limning ikki pog`onali tizimi joriy etildi.Birinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishlio fan tarmogi` bo`yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va ikkinchisi – disssertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog`I bo`yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasinmi berishni nazarda tutuvchi doktorontura tizimidir.

Qaysi mamlakat, millat fan va texnika yutuqlarini mukammal o`rganish va hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo`lsa, buni davlat siyosati darajasiga ko`tarsa uning kelajagi porloq bo`ladi. ``Yuksak ma`naviyatli, zamonaviy bilim va kasb- hunarlarga, o`z mustaqil fikriga ega bo`lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir.Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko`pini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, bu naqadar jiddiy masala ekani yanada yaqqol ayon bo`ladi.Shu o'rinda farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog'liq vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.Avvalambor, «ommaviy madaniyat» ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak.Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma`naviy merosiga tayanamiz.``<sup>32</sup>

2016-2017-yillar O`zbekiston ilm-fanida tom ma`noda tub islohotlar davri bo`ldi.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni ilk bor mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashdi.Uchrashuv natijalariga ko`ra, O`zbekistonda ilm-fanga e`tibor yanada kuchaytirilishi belgilandi.Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-fevralda qabul qilingan ``O`zbekiston Rewspublikasi Fanlar Akademiyasi

---

<sup>32</sup> Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O`zbekiston, 2017,88-89-betlar.

faoliyatini takomillashtirish va rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida``gi farmoni O`zbekistonda fan taraqqiyotini hozirgi zamon svilizatsiyasi talablari asosida tashkil etish, xususan, mamlakatda joriy etilayotgan jadal taraqqiyotlar strategiyasining ilmiy asoslarini yaratish va ishlab chiqarishni fan asosida rivojlantirish zarurligini ko`rsatib berdi.Fanlar akademiyasi haqiqiy a`zoliga oxirgi saylovlari 1995-yil o`tkazilgan edi.O`tgan yillar mobaynida akademiklarning soni ikki martadan ko`proqqa qisqardi va 2017-yilda kelib akademianing atigi 63 nafar haqiqiy a`zosi qolgan edi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi ``O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a`zolarini tasdiqlash to`g`risida``gi tarixiy farmoni bilan 22 yillik tanaffusdan so`ng Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a`zolari tasdiqlandi.Bugungi kunda ilmiy tadqiqot bilan shug`ullanuvchi 400 ta muassasa ro`yxatga olingan bo`lib, fan sohasida 36 ming mutaxassis, jumladan, 2 mingdan ortiq fan doktori va 9 mingdan ortiq fan nomzodi faoliyat olib bormoqda.

Ayni vaqtida mammalaktimiz bosib o`tgan taraqqiyot yo`lining tahlili, bugungi kunda jahon bozori talabi keskin o`zgarib, globallashuv sharoitida raqobat toboro kuchayib borayotgani davlatimizni yanada jadal sur`atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishni taqozo etdi.Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama, jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo`yicha ustuvor yo`nalashlarni amalga oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagisi farmoni bilan 2017-2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasida mamlakatni yanada rivojlantirish bo`yicha 5 ta ustuvor yo`nalish keltirilgan:

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish (moviy havorang, osmon va toza suv ramzi, Amir Temur davlati bayrog`ining rangi).

II. Qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish (siyohrang – qonun ustuvorligi va or-nomuslilik ramzi).

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish (tillarang – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi).

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish (qizil rang – hayot va aholining munosib turmush tarzini ta`minlash ramzi)

V. Xavfsizlik, diniy bag`rikenglik va millatlararo totuvlik, o`zaro manfaatlar va amaliy tashqi siyosat (oq rang – tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi).

Strategiya dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o`rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo`yicha ishlab chiqilgan.

Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo`yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda, alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo`yicha Prezident rahbarlik qiladigan 14 kishilik Milliy komissiya tuzilib, u mazkur hujjatda belgilangan vazifalarning o`z vaqtida, sifatli bajarilishini nazarot qiladigan bo`ldi.

2016-yil «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra, 30 yoshgacha bo‘lgan barcha toifadagi shaxslar yoshlar ekanligi qayd etilgan. «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yogda chiqarishda davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas’uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora- tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Prezidentimizning 2017-yil iyuldagи «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoniga muvofiq, mamlakatimizdagi barcha harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berildi. Yoshlarni yanada

rag‘batlantirish maqsadida «Mard o‘g‘lon» mukofoti ta’sis etildi. 2017-yil sentabrida o‘quvchilarning aniq fanlarning yuksak marralarini zabt etishiga ko‘maklashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi iqtidorlarini aniqlash hamda qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufi da Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab (Al-Xorazmiy maktabi) tashkil etildi. Ushbu maktabga o‘quvchilar 5-sinfdan boshlab yozma va og‘zaki sinov natijalariga ko‘ra tanlov asosida qabul qilinadi.

«Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi». <sup>33</sup>

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo va butun dunyoda hamjihatlikka erishish, dinlararo totuvlik, tinchlikni saqlash yo‘lida muhim dasturilamal bo‘layotganini, bu jihatlar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham o‘z aksini topganini e’tirof etdi. Prezidentning 2017-yil 27-martdagи «O‘zbekiston

---

<sup>33</sup> Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi so‘zlagan nutqidan

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq Samarqandda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Uning tarkibida hadisshunoslik oliv maktabi, hadis, kalom va qiroat ilmini o‘rganishga mo‘ljallangan xonalar, qo‘lyozmalar kutubxonasi, muzey tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori asosida Toshkentda Islom madaniyati markazi hamda Prezidentning 2017-yil 15-dekabrdagi farmoni asosida O‘zbekiston Islom akademiyasi tashkil etildi.

«Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan». <sup>34</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raaisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e`tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san`at, jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko`nikmalarini singdirish, yoshlar o`rtasida kitobxonlikni targ`ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag`ishlangan videoselektor yig`ilishi o`tkazildi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo`lgan yigit-qizlar tashkil etadi.Ularning ta`lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan.Shu bilan birga, yoshlarning bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazishni

---

<sup>34</sup> *Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi so‘zlagan nutqidan*

tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.Yoshlar qanchalik ma`naviy barkamol bo`lsa, turli yet illatlarga qarshi immuniteti ham ham shunchalik kuchli bo`ladi.

Ma`lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma`naviy-ma`rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo`lga qo`yish bo`yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san`atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste`dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinci tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo`naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o`rtasida kompyuter texnologiyalarini va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To`rtinchi tashabbus – yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ`ib qilish tizimli ishlarni tashkil etishga yo`naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ana shu ezgu g`oya Prezidentimiz Shahvkat Mirziyoyevni Sirdaryo viloyatiga 2019-yil mart oyida tashrifi choig`ida boshlanib, qisqa vaqtda ulkan ishlar amalga oshirildi.Sirdaryo viloyatidagi tuman va shaharlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi.Musiqa va san`at maktablari cholg`u asboblari, sport ob`ektlari jihozlari bilan ta`minlanadi.

Bu ishlar Namangan viloyatida ham davom ettirilib, ``Ma`rifat karvoni`` tashkil etildi.Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdag'i sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Bir so`z bilan aytganda, ushbu 5 ta tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san`at maktablariga atigi 130 ming nafar o`g'il-qiz qamrab olingani, mazkur muassasalarining aksariyati o`quv qo`llanmalari, notalar to`plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta`minlangani ko`rsatib o`tildi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta`limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta`lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo`shimcha 1,5 mingta to`garak tashkil etish vazifasi qo`yildi. Tashabbuskor iste`dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalg etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalar, yoshlar, teatr-studiyalari va ``Yoshlar klublari`` tashkil qilish zarurligi ta`kidlandi.

Atoqli san`atkor va iste`dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko`makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olinib, bu tajribani butun respublikaga yoyish bo`yicha ko`rsatmalar berildi.Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy masalatchi sifatida biriktirilib, o`sha joylarda madaniyat va san`atni rivojlantirishga mas`ul bo`ladi, ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi.

Musiqa va san`at sohasida oliy ma`lumotli kadrlarni ko`paytirish masalasiga ham e`tibor qaratiladi.

Oliy va o`rta maxsus ta`lim hamda Xalq ta`limi vazriliklariga muayyan mavzular bo`yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o`tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, mamlakatimizda 12 mingdan ziyod sport inshoatlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta`lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko`rsatkichi respublika bo`yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpogistonda 15 foizni tashkil etadi, xols.

Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo`yicha o`rinbosarlariga mutaxasislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshoatlarining jihozlanish darajasini o`rganib, shu asosda takliflar berish, vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag`lar manbasini aniqlash vazifasi qo`yildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun`iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga

sport inshoatlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta`kidlandi.Bunday tadbirkorlarga O`zmilliybank tomonidan ``Yoshlar - kelajagimiz`` dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g`olib bo`lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o`quv yurtlarining maxsus sirtqi bo`limlarida maqsadli o`qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar-o`smirlar sport maktablarini sonini ko`paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Uchinchi tashabbusda yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o`rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat berildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilg`or xalqaro tajribalar asosida barcha shahar va tumanlar markazlarini Raqamli texnologiyalar o`quv markazlarini tashkil etish bo`yicha topshiriq berildi.Bu markazlarda electron tijorat va dasturlash bepul o`rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik bilan shu`gullanish bo`yicha innovatsion ko`nikmalar beriladi, ``startap`` loyihalarga yordam ko`rsatiladi.

Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnikalari bo`lishiga qaramasdan, internet, xizmatidan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi.Xalq ta`limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021-yilghacha barcha maktablarda kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog`I bilan ta`minlash bo`yicha chora-tadbirlar rejasini sihlab chiqish vazifasi qo`yildi.

Yoshlarda bolalik chog`idan kitobga mehr uyg`otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo`llarida mustahkam zamin bo`ladi.Lekin ko`plab qishloq va mahallalarda buning uchun zarur sharoit mavjud emas.Ilgarigi kutubxonalar o`rnida tashkil etilgan ``Axborot-resurs markazlari`` o`zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmadi.

Shu holatlarni hisobga olib, yangi tashabbus doirasida yoshlar sonidan kelib chiqqan holda joylarga qo`shimchakitoblar yetkazib berish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mutasaddi vazirlik va uyushmalarga ``Kitob karvoni`` loyihasi doirasida badiiy, ma`rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog`iston Respublikasi va barcha viloyatlarda ``Bibliobus``larni yo`lga qo`yish orqali qishloq va ovular aholisiga kutubxona xizmati ko`rsatish vazifasi qo`yildi.

Tashabbusda xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash masalalari ham muhokama qilindi. Shu maqsadda 2019-2020-yillarda barcha tumanlarda sendvich panellardan 195 ta tikuv-trikotej korxonalarini qurish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zinch yashaydigan, mehnat resurslari ko`p joylar tanlab olingan, Bu korxonalarini tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o`rni yaratish ko`zda tutilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mehnat qilish istagidagi ayollar ish o`rinlari sonidan ancha ko`pligini hisobga olib, korxonalarda ishni 2 smenada tashkil etish, ularda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta`kidladi.

## X U L O S A

XXI asrga kelib ma’naviyatning inson, millat va jamiyat taraqqiyotida o’rni haqida ko’plab risola va maqolalar yozila boshladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki insoniyatning bu davrga kelib intellektual salohiyati beqiyos darajada yuksaklikka ko’tarilishiga qaramasdan uning ma’naviy qashshoqlashuvi, tubanlik sari ketishi ham avj ola boshladi. Aslida, uning aksi bo’lishi lozim edi. Ya’ni intellektual salohiyatning o’sishi ma’naviyatning rivojlanishiga, uning intellektual salohiyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo’lishi lozim edi. Afsuski, bugun xudbinlik, o’z manfaatini millat va jamiyat manfaatlaridan ustun qo’yish, axloqsizlik va shunga o’xshash salbiy jarayonlarning avj olishi kuchayib bormoqda.

Ayni paytda bir qator rivojlangan mamlakatlar ma’naviyat omili vositasida o’zlarining “ommaviy” ma’naviyatlarini jahon miqyosida keng yoyish, uni ommalashtirish yo’li bilan o’zlarining siyosiy gegemonliklarini o’rnatishga qaratilgan harakatlarini ham kuchaytirmoqdalar. Shuning bilan birga bugun jahon miqyosida globallashuvning ta’sirida milliy ma’naviyatlarning “ichidan” va “tashqari” sidan yemirilish xavfi ham yuzaga kelmoqda. Yana bir muammo, bugun katta zamonaviy texnika va texnologiya, kompyuter, internet va boshqa vositalarga ega bo’lgan mamlakatlar ular yordamida o’zlarining jirkanch, g’oyalarini hali hayotiy tajribaga ega bo’lmagan yoshlar ongi va qalbiga singdirishni avj oldirmoqdalar.

Xullas, bugun “ma’naviyat” vositasida har kim o’zining manfaatlarini amalga oshirishga urinmoqda. Eng xatarlisi bu jarayon hech bo’limganda umuminsoniyat intellektual yuksalgan sari bir qadar susayishi o’rniga, aksincha avj olmoqda. Bunday sharoitda, o’zimizning manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yoshlarimizni ana shunday xavf-xatarlardan himoya qilishga zaruriyat ham oshib bormoqda.

### **Ushbu asoslardan kelib chiqib:**

1. Bugungi jamiyatimiz taraqqiyotida xalqimiz ma’naviyati va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-tarixiy omillarni keng o’rganish muhim

ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, fanlarimizda ushbu mavzu bo'yicha alohida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish kerak.

2. O'zbek xalqi ma'naviyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirib borish, globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatdagi o'zgarishlarni, xususan milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga globallashuvning salbiy ta'sirini oldini olish, bunda uni turli g'oyaviy tahdidlardan himoyalash bo'yicha konkret amaliy ishlar olib borish, umuman, ma'naviyatni bugungi va kelgusi taraqqiyot talablariga muvofiq rivojlantirib borish zarur.

3. Umuman, dunyo xalqlarining, shu jumladan o'zbek xalqi ma'naviyatini rivojlanish istiqbollarini ko'rsatib berish hozirgi davrdagi eng dolzarb vazifalardandir. Shu nuqtai nazardan, fanlarimizda ma'naviyat masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'lamenti kengaytirish, bunda xalqimiz ma'naviyatining kelgusi rivojlanish bosqichlarini tavsiflashga alohida e'tibor qaratish lozim.

4. O'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslarini milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va shu kabi fanlarda yanada kengroq doirada o'rganish, bu boradagi muammo-masalalarni ilmiy tadqiq etishni yanada kengaytirish kabi tavsiyalarni berishim mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-21 jiddlar. -T.:“O'zbekiston”, 1996-2013.
2. Karimov.I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yoli. – T.: O'zbekiston, 1992
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1996
4. Karimov.I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston, 1996
5. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T: O'zbekiston. 1997
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:“Ma'naviyat”, 2008.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2010.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: “O'zbekiston”, 2011.
9. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir .- T.:“O'zbekiston”, 2012. - 312 b.
- 10.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. -T.:“O'zbekiston”, 2013.
- 11.Mirziyoyev Sh.M Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. I tom
- 12.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2017. I tom
- 13.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. I tom

14.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- T.:O`zbekiston, 2017.I tom

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.:“O’zbekiston”, 2017.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “O’zbekiston”, 1997. –B. 18-52.
3. Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazini tuzi sh to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-apreldagi Farmoni. Internet sayt: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-sentyabrdagi Farmoni. Internet sayt: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 3-oktabrdagi Farmoni. Internet sayt: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xalq so’zi. 2006-yil 26-avgust
7. ``O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g’risida`` O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi farmoni. Internet sayt: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. ``O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g’risida`` O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagagi farmoni
9. ``Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to`g’risida`` O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagagi qarori. Internet sayt: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

### **III. Monografiya, risola va o'quv qo'llanmalar:**

1. Otamuratov S. Siyosat va jamiyatning ma'naviy madaniyati mavzusidagi matniga uslubiy ko'rsatma. Toshkent, 1996.
2. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. 1997.
3. Erkaev A. Ma'naviyat-millat nishoni. Toshkent "Ma'naviyat", 1999.
4. Ergashev Q. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi. Toshkent, "Ma'naviyat", 1999.
5. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. -T.: 2000.
6. Imomnazarov M, Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari:-T.: "Toshkent islom universiteti", 2001.,
7. Ma'naviyat yulduzlari.-T.: A. Qodiriy nomidagi xalq meros, 2001.-408 b
8. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish, omillari va vositalari. - T.: "Ijod dunyosi" nashriyot uyi. 2002.
9. Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. Toshkent, "Ma'naviyat", 2002.
10. Muxiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. - T.: "Ma'naviyat", 2005 . -208 b.
11. Sharifxo'jaev M, Davronov Z. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005.
12. Imomnazarov M.. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. -T.: 2006.,
13. Umarov E, Abdullaev M. Ma'naviyat asoslari. - T.: "Cho'lpon", 2006. -128 b.
14. G'oyalar falsafasi. Ma'ruzalar matni.Jizzax–2007
15. Mamashokirov S., O'tamurodov A., Qodirova R., Ortiqov M., Tog'aev Sh, Milliy taraqqiyotning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari.- T.: ma'ruzalar matni.2008.
16. Munavvarova M. Milliy g'oyaning ma'naviy ildizlari.- T.: "Ma'naviyat", 2011 . - 96 b.
17. Quvondiqov I. Huquqiy madaniyat va milliy g'oya.- T.: "O'zbekiston", 2011. - 128 b.

### **IV. Elektron manbalar:**

1.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

2.[www. uforum.uz](http://www. uforum.uz)

3.[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

4.[www.xs.uz](http://www.xs.uz)

5.www: mfa. uz.


5.[www.turkistonsarkor.uz](http://www.turkistonsarkor.uz)

6.[www. manaviyat.uz.pak.uz](http://www. manaviyat.uz.pak.uz)


7.[www.info xs.uz](http://www.info xs.uz)

8.[www.fikr.uz](http://www.fikr.uz)

## 1-ilova



## 2-ilova



## Mundarija

Kirish.....	2-6
I BOB. Ma`naviyatda milliylik, mintaqaviylik va umuminsoniylik tushunchalarining mazmun-mohiyati.....	7-26
1.1. Ma`naviyat tushunchasi va uning millat taraqqiyotidagi o`rni.....	7-13
1.2. Mintaqaviy ma`naviyat ko`lami hamda uning mintaqaviy masalalardagi o`rni.....	14-20
1.3. Informatsion dunyoda umuminsoniy ma`naviyatning nomoyon bo`lishi global ehtiyoj sifastida.....	21-26
II BOB. Ma`naviyat – jamiyat hayotini harakatlantiruvchi kuch sifatida... 2.1. Ma`naviyat va ijtimoiy hayot taraqqiyotining uzbekistoni 2.2. Globallashuv sharoitida ma`naviyatga bo`lgan ehtiyojnинг ortishi..... 2.3 Yangilanayotgan O`zbekistonda ma`naviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar xususida.....	27-53
Xulosa.....	54-56
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	57-61
Ilova.....	62-63
Mundarija.....	64